



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

2025–2027-YILLAR UCHUN **FISKAL STRATEGIYA**



IMV.UZ



MUNDARIJA

Qisqartmalar	2
Qisqacha sharh.....	3
I. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar sharhi	7
1.1. Jahon va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy tendensiyalar	7
1.2. 2025-2027-yillar uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari va iqtisodiy o‘rish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo‘nalishlar	8
II. Soliq va budjet siyosatining uzoq muddatdagi asosiy maqsadlari	16
2.1. Fiskal siyosatning asosiy maqsadlariga erishishda soliq-budjet intizomini ta‘minlash	17
2.2. Fiskal maqsadlardan kelib chiqib soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari	19
2.2.1. O‘rta muddatli davr uchun soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	19
2.2.2. O‘rta muddatli davr uchun budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	20
2.3. 2025-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjetning jamlanma parametrlari prognozi hamda 2026–2027-yillarga mo‘ljallari.	24
2.3.1. 2024-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunida belgilangan budjet ko‘rsatkichlarining yangilangan prognozlardan farqi.....	27
2.3.2 Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarining o‘rta muddatli davr uchun prognozlari.	29
2.3.3 DMJ hamda TTJning 2025-yilgi prognozi va 2026–2027-yillardagi mo‘ljallari.	48
2.3.4 Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari prognozlari.	49
2.3.5 Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari va xarajatlari tahlili.	50
2.4 Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko‘rsatkichlari.	51
III. Fiskal tavakkalchiliklarni baholash.	54
IV. Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish islohotlari.....	73
4.1. 2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi.....	73
4.2 Budjet mablag‘lari samaradorligi va natijadorligini oshirish.....	75
4.3 Davlat moliyaviy statistikasini yuritishning xalqaro standartlariga o‘tish islohotlari... 80	
4.4 Budjet ochiqligini ta‘minlash va budjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish.....	82
4.5 Budjet xarajatlarini BRMga uyg‘unlashtirish.....	86
4.5.1 “Yashil budjetlashtirish” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish.	87
4.5.2 Gender tengligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar.....	90
4.6. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish.	91
Asosiy tushunchalar	94
Ilovalar	

Qisqartmalar

BMTTD	Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi
BRM	Barqaror rivojlantirish maqsadlari
DMJ	Davlat maqsadli jamgʻarmalari
DXSH	Davlat-xususiy sherikligi
FTA	Fransiya taraqqiyot agentligi
f.b.	foiz band
GFS	Government Finance Statistics (Davlat moliyasi statistikasi)
IMV	Iqtisodiyot va moliya vazirligi
JST	Jahon savdo tashkiloti
JB	Jahon banki
MTT	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari
NNT	Nodavlat notijorat tashkilotlari
OTB	Osiyo taraqqiyot banki
PEFA	Public Expenditure and Financial Accountability (Davlat moliyasini boshqarishni Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik mezonlari asosida baholash)
QQS	Qoʻshilgan qiymat soligʻi
TTJ	Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi
XVJ	Xalqaro valyuta jamgʻarmasi
XMI	Xalqaro moliya institutlari
YETTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
YAIM	Yalpi ichki mahsulot
YAHM	Yalpi hududiy mahsulot

Ushbu hujjat keyingi oʻrta muddatli davr uchun makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning prognozlari, fiskal siyosatning asosiy yoʻnalishlari, fiskal tavakkalchiliklar bahosi, Oʻzbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari va xarajatlarining prognozlari, shu jumladan, Davlat budjeti taqchilligi prognozlari, uning kelib chiqish sabablari va uni moliyalashtirish manbalari, davlat qarzi tahlili va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash maqsadida tashqi va ichki taʼsirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borishni maqsad qilingan boʻlib, oʻrta va uzoq muddatdagi asosiy **maqsadlar** sifatida quyidagilar belgilandi:

- barqaror iqtisodiy oʻsish orqali daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar qatoriga kirish va buning uchun YAIM hajmini 160 milliard AQSh dollariga va **aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming AQSh dollariga** yetkazish;

- daromadlar bazasini mustahkamlash xamda budjet xarajatlari samaradorligini oshirish orqali konsolidatsiyalashgan budjet **taqchilligini** YAIMga nisbatan **3 foizdan** oshirmaslik orqali makroiqtisodiy barqarorlik va budjet intizomini taʼminlash;

- oʻrta muddatga moʻljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining YAIMga nisbatini **50 foizdan** oshmasligini taʼminlash;

- “**Yashirin iqtisodiyot**” ulushini qisqartirish;

- bosqichma-bosqich “**Natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish**” amaliyotiga oʻtish;

- soliq, bojxona qonunchiligini va iqtisodiyotning turli sohalariga ajratilayotgan subsidiyalar va berilayotgan imtiyozlarni **JST** talablariga uygʻunlashtirish;

- aholi talablariga va xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan taʼlim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat budjeti xarajatlarining **ijtimoiy yoʻnaltirilganligini** saqlab qolish.

Ushbu strategiyani ishlab chiqishda jahon iqtisodiyotining oʻrta muddatda rivojlanish prognozlari inobatga olingan.

XVJning joriy yil aprel oyidagi hisobotiga¹ koʻra, **jahon iqtisodiyoti** oʻsishi 2024 – 2025-yillarda 2023-yildagi kabi oʻzgarishsiz qolishi, yaʼni 3,2 foizni tashkil etishi prognoz qilingan.

Rivojlangan mamlakatlarda ushbu koʻrsatkich 2024-yilda 2023-yildagi 1,6 foizdan 1,7 foizgacha oʻsishi hamda 2025-yilda 1,8 foizga koʻtarilishi, **rivojlanayotgan mamlakatlarda** 2024–2025-yillarda 2023-yildagi 4,3 foizdan 4,2 foizgacha pasayishi, **daromadi past rivojlanayotgan davlatlarda** 2024-yilda

¹ Imf.org/World Economic Outlook, Apr 2024

2023-yilgi 4 foizdan 4,7 foizgacha o'sishi, 2025-yilga kelib o'sish 5,2 foizgacha yetishi prognoz qilingan.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari tomonidan olib borilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati natijasida **global inflatsiya** 2024-yilda 2023-yildagi 6,8 foizdan 5,9 foizgacha, 2025-yilda 4,5 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.

XVJning joriy yil aprel oyidagi prognoziga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi 2024-yilda 5,4 foiz, 2025-yilda 5,4 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilingan.

Milliy prognozlarga ko'ra O'zbekiston iqtisodiyoti davom etayotgan murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyatlarga qaramasdan, 2024-yilda ham 2023-yilgi o'sish sur'atini yoki 6 foizni saqlab qolishi hamda 2025-yilda 6,2 foizga, 2026–2027-yillarda tegishincha 6,4 va 6,2 foizga o'sishi prognoz qilingan.

Bunda, sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2025-yilda 7,6 foizni, 2026-yilda 7,5 foizni, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 2025–2026-yillarda 4,1 foizni, hamda bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 2025-yilda 14 foizni, 2026-yilda 14,9 foizni tashkil etishi prognoz qilingan.

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy va budjet ko'rsatkichlarining milliy prognozlari

	Ijro	Ijro	Tasdiq- langan	Kutilma	Prognoz		
	2022	2023	2024	2024	2025	2026	2027
Aholi soni, mln kishi	35,7	36,4	37,1	37,1	37,8	38,6	39,4
YAIM o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	5,7	6,0	6,0	6,0	6,2	6,4	6,2-6,4
Aholi jon boshiga YAIM hajmi, AQSH doll.	2 275	2 496	2 698	2 698	2 950	3 055	3 200
Inflatsiya, o'tgan yil yakuniga nisbatan, foizda	12,3	8,8	9,0	9,0	8,0	6,0	6,0
Konsolidatsiyalashgan budjet ko'rsatkichlari, shu jumladan:	x	x	x	x	x	x	x
daromadlar, trln so'm	286,5	321,9	375,0	379,4	437,8	520,1	587,9
xarajatlar, trln so'm	321,7	381,0	427,6	432,1	484,3	572,3	646,2
taqchillik, trln so'm	-35,2	-59,2	-52,6	-52,7	-46,6	-52,2	-58,3
taqchillik, YAIMga nisbatan foizda	-4,0	-5,5	-4,0	-4,0	-3,0	-3,0	-3,0

O'zbekistonda inflatsiya darajasi 2024-yilda 9 foiz atrofida bo'lishi, 2025-yilda 8 foizgacha, 2026-yilga kelib 6 foizgacha pasayishi prognoz qilingan.

O'zbekistonda iqtisodiy faollikning oshishi, mamlakatning muhim eksport tovarlari narxlarining dunyo bozoridagi yuqoriligi hisobiga 2024-yilda Davlat budjeti daromadlari tasdiqlangan prognozga nisbatan ortig'i bilan bajarilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, global iqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar tufayli tashqi xatarlar saqlanib qoladi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilinishi natijasida 2024-yilgi Davlat budjeti xarajatlari qayta ko'rib chiqiladi.

Bunda, konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining YAIMga nisbatan 4 foizdan oshmasligi ta'minlanadi.

Uzoq muddatli fiskal maqsadlar va makroiqtisodiy istiqbollardan, jumladan, o'rta muddatda **konsolidatsiyalashgan budjet balansi** YAIMga nisbatan **3 foizlik** taqchillikdan oshmasligidan kelib chiqib, 2025-yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari prognozi 437,8 trln so'm yoki YAIMga nisbatan 28,4 foiz, xarajatlari prognozi 484,3 trln so'm yoki YAIMga nisbatan 31,4 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda. Bunda, 2026 – 2027-yillarda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari mo'ljallari tegishincha YAIMga nisbatan 30,1 foiz va 30,5 foiz, xarajatlari mo'ljallari tegishincha YAIMga nisbatan 33,2 foiz va 33,5 foiz miqdorida prognoz qilingan.

“2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq tasdiqlangan 2024 – 2025-yillar uchun budjet mo'ljallarining mazkur strategiyada belgilanayotgan yangilangan prognozlardan farqining kelib chiqishi sabablari ushbu strategiyaning 2.3.1-bo'limida keltirilgan.

Kelgusi yillarda O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarini jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi **4,5 mlrd AQSh dollari** miqdorida, shundan **2,5 mlrd AQSh dollari** Davlat budjetini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, budjet taqchilligini moliyalashtirishga, qolgan qismi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirish belgilangan.

O'rta muddatda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi bo'yicha kiritilgan budjet qoidasiga amal qilish orqali budjetni qo'llab-quvvatlash uchun jalb qilinadigan tashqi qarzlar oshishining oldini olish, bunda tashqi qarzlarini, asosan, yuqori samarali investitsiya loyihalariga jalb qilish orqali davlat qarzining YAIMga nisbatini 50 foizlik chegaradan oshirmaslik bo'yicha strategik maqsadga erishish choralari kuchaytiriladi.

O'rta muddatli davrda kelib chiqqan konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi asosan tashqi qarzlarini jalb qilish, davlat g'aznachilik obligatsiyalarini muomalaga chiqarish, davlat aktivlarini xususilashtirishdan tushumlar, yil boshiga qoldiq mablag'lar va boshqa manbalar hisobidan qoplanadi (7-jadval).

Bundan tashqari, 3 ta muqobil ssenariy asosida makroiqtisodiy va budget ko'rsatkichlarining yuqoridagi maqsadli ko'rsatkichlariga erishishda xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan xatarlar ta'siri hamda DXSh loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlari va davlat korxonalarining moliyaviy holati sharhi mazkur strategiyaning III bo'limida keltirilgan.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish islohotlari doirasida dasturiy budgetlashtirish tizimiga o'tishda 2025-yil uchun Davlat budjeti loyihasida sinov tariqasida Qishloq xo'jaligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining budget xarajatlari **to'liq o'rta muddatli davr uchun budget dasturlari kesimida ishlab chiqilishi rejalashtirilgan bo'lsa**, 2026-yildan boshlab bosqichma-bosqich boshqa vazirlik va idoralarning budget xarajatlarini ham budget dasturlari kesimida ishlab chiqish choralari ko'riladi.

Shuningdek, tashabbusli budgetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish, jumladan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida "Ochiq budget" portalida loyihalarni tashabbuskorlar tomonidan qabul qilib olish mexanizmini to'liq joriy etish, majburiy ovoz to'plash bo'yicha aniqlangan holatlarni kunlik ommaviy axborot vositalarida yoritib borishni yo'lga qo'yish orqali majburiy ovoz to'plashga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yuqori sinf o'quvchilari orasida "Mening maktabim" loyihasini ishga tushirish hamda xalqaro amaliyotdan kelib chiqib jarayonni yanada shaffoflashtirish uchun fuqarolarga o'z mablag'larini "legal" yo'l orqali o'z loyihalariga yo'naltirish imkonini berish maqsadida "kraudfanding" tizimini joriy etish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi.

Bundan tashqari, o'rta muddatda yashil budgetlashtirish islohotlari doirasida iqlim budjetini markirovkalash modelini to'liq joriy etish, budjetni "yashil" markirovkalash jarayonlarini avtomatlashtirish va dasturiy ta'minotga integratsiyalash, "yashil" va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq budjet muhokamalari va budjet nazoratiga imkon beruvchi tizimni joriy etish maqsad qilingan.

Budjetni shakllantirishda aholi qatlamlari va fuqarolarning ehtiyojlarini to'laqonli qamrab olish maqsadida gender tengligiga qaratilgan islohotlar davom ettirilishi rejalashtirilgan. Jumladan, Davlat budjeti xarajatlarini gender tenglikni hisobga olgan holda budgetlashtirish uslubiyotini ishlab chiqish, gender tenglikni hisobga olgan holda, budjet dasturlarida strategiyalar, normativ hujjatlar va statistik ma'lumotlar asosida maqsadli gender indikatorlar ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar mazkur strategiyaning IV bo'limida yoritilgan.

Mazkur Fiskal strategiya 2025-2027-yillar uchun ishlab chiqiladigan Davlat budjeti loyihalasi va Budjetnomaga asos bo'lib xizmat qiladi.

I. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sharhi

1.1. Jahon va O'zbekiston iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy tendensiyalar

XVJ tomonidan e'lon qilingan hisobotlarga ko'ra 2023-yilda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan bo'lsada, geosiyosiy ziddiyatlar tufayli yuzaga kelgan jahon savdosidagi uzilishlar global iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri saqlanib qolmoqda.

Xususan, XVJning 2024-yil aprel oyidagi hisobotida², jahon iqtisodiyotida yuqori global inflatsion sharoitda qat'iy monetar siyosatning davom ettirilishi, shuningdek, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi yukini qisqartirish maqsadida fiskal konsolidatsiyaning (qat'iylashtirish) amalga oshirilishi natijasida kelgusi yillarda global iqtisodiy o'sish sur'atlarining mo'tadillashishi kutilmoqda.

Mazkur hisobotga ko'ra 2023-yilda global iqtisodiy o'sish sur'ati **3,2 foizni** tashkil qilgan bo'lib mazkur o'sish sur'ati 2024-2025-yillarda ham saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari jumladan, Rossiya iqtisodiyoti 2024-yilda **3,2 foizdan** 2025-yilda **1,8 foizga**, Xitoyda **4,6 foizdan 4,1 foizga** o'sish sur'atining sekinlashishi kutilayotgan bo'lsa, Turkiya iqtisodiyotining **3,1 foizdan 3,2 foizga** hamda Qozog'istonda **3,1 foizdan 5,6 foizga** o'sishi prognoz qilingan.

2-jadval. XVJ va JBning mintaqadagi hamda asosiy savdo hamkor davlatlar uchun iqtisodiy o'sish prognozlari, foizda

	XVJ		JB	
	2024	2025	2024	2025
Jahon iqtisodiyoti	3,2	3,2	2,4	2,7
Rossiya	3,2	1,8	1,3	0,9
Xitoy	4,6	4,1	4,5	4,3
Turkiya	3,1	3,2	3,1	3,9
Qozog'iston	3,1	5,6	4,3	4,5
Qirg'iziston	4,4	4,2	4,0	4,0
Tojikiston	6,5	4,5	5,5	4,5
Ozarbayjon	2,8	2,3	2,4	2,5
Gruziya	5,7	5,2	4,8	4,5

Manba: XVJ va JBning 2024-yil aprel va yanvar oyidagi hisobotlari.

² Imf.org/World Economic Outlook, Apr 2024

2024-2025-yillarda xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan tayyorlangan O'zbekistonning iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra 2024-yil YAIM o'sishi **5,4 foiz** atrofida va 2025-yilga borib ushbu ko'rsatkich **5,5 foiz** atrofida bo'lishi prognoz qilingan (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonda YAIMning o'sish sur'ati, foizda

	2024	2025	2026	2027
XVJ (2024-yil aprel)	5,4	5,5	5,5	5,5
JB (2024-yil yanvar)	5,5	5,5	5,6	x
OTB (2024-yil aprel)	5,5	5,6	x	x
Milliy prognozlar	6,0	6,2	6,4	6,2-6,4


1.2. 2025-2027-yillar uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo'nalishlar

1.2.1. 2024-yil I chorak yakunlari bilan erishilgan natijalar


2023-yilda YAIM o'sish sur'ati **6,2 foizni** (yil boshidagi prognoz – 6 foiz) tashkil etdi.

Bunda, sanoat **6,5 foizga** (1,7 f.b), qurilish ishlari – **6,8 foiz** (0,4 f.b) va qishloq xo'jaligi **3,6 foizga** (0,4 f.b) o'sdi.

1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari o'sish sur'atlari, foizda




2-rasm. Tarmoq va sohalarning YAIM o'sish sur'atidagi ulushi, foizda




Joriy yilning I choragida iste'mol narxlari indeksi (INI) **1,7 foizni** (2023-yilda – 2,4 foiz, 2022-yilda – 2,9 foiz) tashkil etdi, bunda, oziq-ovqat **1,7 foiz**, nooziq-ovqat – **1,1 foiz** va xizmatlar **2,3 foiz** qimmatlashdi.

3-rasm. Inflatsiya darajasi (yil boshiga nisbatan), foizda



Ma'lumot uchun: I chorakda inflatsiya darajasiga oziq-ovqat mahsulotlari hisyasi **0,75 foiz** (jami yig'ma indeksning 45 foizi), nooziq-ovqat mahsulotlari hisyasi **0,37 foiz** (22 foiz), xizmatlar hisyasi **0,54 foizni** (33 foiz) tashkil qilgan.

4-rasm. Inflatsiya darajasi, foizda



2024-yil 1-aprel holatiga ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni 622,3 mingtaga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 foizga o'sdi.

Bunda, tarmoqlar kesimida o'sish savdo 12,1 foiz, aloqa va axborotlashtirish sohasida – 11,6 foiz, yashash va ovqatlanish – 9,3 foiz, tashish va saqlash – 8,8 foiz, sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 8,6 foiz, va qishloq xo'jaligi – 2,2 foiz va qurilish sohasida 1,8 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, **YAIM o'sishining talab omillari bo'lib:**

- chakana savdo aylanmasi **72,5 trln** so'mni (*o'sish – 9,3 foiz*), o'rtacha nominal ish haqi **4,9 mln** so'mni (*19,8 foiz*) tashkil etdi;
- pul o'tkazmalari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,6 foizga** o'sdi;
- asosiy kapitalga investitsiyalar qariyb **1,8 barobarga** oshdi (*107,1 trln so'm*);

•eksportning nominal o'sishi **10,8 foizni** (6,4 mlrd AQSH doll.) va import **3,8 foizni** (9,4 mlrd AQSH doll) tashkil etdi.

Iqtisodiy o'sishda tarmoq va sohalarning ta'siri

Bozor xizmatlari: joriy yilning yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 127,8 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,2 foizga oshdi.

Bunda, yuqori o'sish sur'atlari asosan, ta'lim xizmatlarida qariyb – 25,6 foizga, moliyaviy xizmatlar – 25,2 foizga, aloqa va axborotlashtirish – 18,8 foizga, sog'liqni saqlash – 14,2 foizga, yashash va ovqatlanish – 10,5 foizga va savdo xizmatlari – 10,4 foizga o'sish kuzatildi.

Qishloq xo'jaligi: hisobot davrida sohada 45,4 trln so'mlik (*o'sish – 3,6 foiz*) mahsulot ishlab chiqarildi. Bunda, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik sohalarida 43 trln so'mlik (*3,6 foiz*), o'rmon xo'jaligi sohasida 2 trln so'mlik (*2,7 foiz*) hamda baliqchilik xo'jaligida 379 mlrd so'mlik (*5,8 foiz*) mahsulot yetishtirilgan.

1.2.2. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2024-yil oxirigacha kutilmalari.

So'ngi 5 yilda global iqtisodiyotda kuzatilayotgan murakkab vaziyatga qaramasdan mamlakatni rivojlantirish strategiyalariga muvofiq iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgani hamda tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarning amalga oshirilishi hisobiga 2024-yilda ham barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga (*6 foizga*) erishish kutilmoqda. Bunda iqtisodiy o'sish shartlari bo'lib:

- joriy yil yakunida konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini **4 foizdan** oshirmaslik;
- **inflatsiya darajasini 9 foiz** atrofida bo'lishini ta'minlash;
- asosiy kapitalga o'zlashtirilgan **investitsiyalar hajmining 466 trln so'm** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,1 foizga** oshishi;
- iqtisodiyotga ajratiladigan **kreditlar** qoldig'ining YAIM ning nominal o'sishi darajasi atrofida bo'lishi;
- eksport (oltinsiz) hajmining **20 foizga** o'sishi hisoblanmoqda.

Shu bilan birga, **tarmoqlar kesimida** iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bozor xizmatlari sohasi bo'lib, uning o'sish sur'ati **17-20 foizni** tashkil etishi kutilayotgan bo'lsa, sanoat – **7 foizga**, qurilish ishlari – **6,3 foizga** va qishloq xo'jaligi – **4 foizga** o'sishi prognoz qilinmoqda.

2024-yilda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida o‘rshni qo‘llab-quvvatlovchi omillar bo‘lib quyidagilar hisoblanishi kutilmoqda:

Sanoat tarmog‘ida:

- tarmoqda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida **3 mingga** yaqin yirik va hududiy loyihalar amalga oshiriladi;
- energetika sohasida hududlarda DXSH asosida umumiy quvvati **2,7 GVt** bo‘lgan qayta tiklanuvchi (*quyosh va shamol*) energiya manbalari ishlab chiqarishning yangi loyihalarining ishga tushirilishi natijasida respublika iste‘molchilarini barqaror energiya resurslari bilan ta‘minlash darajasi yaxshilanadi;
- metallurgiya sohasida, to‘liq ishlab chiqarish quvvatlarni ishga solish hamda boshqa tegishli tadbirlar orqali oltin tarkibli ma‘danning yillik qayta ishlash hajmini **4 mln tonnaga** (2023-yilda 2 mln tonnani tashkil etgan) yetkazish hamda oltin ishlab chiqarish hajmini **4,4 foizga** o‘rshi ta‘minlanadi;
- avtomobilsozlik sanoatida yengil avtomobillar ishlab chiqarishning yangi quvvatlarni ishga tushirish orqali 2024-yilda **460 ming dona** yengil avtomobil ishlab chiqariladi;

Qishloq xo‘jaligida:

- 2022-2023-yillarda aholiga uzoq muddatli ijara asosida **auksion savdolarida** ajratilgan **200 ming gektar** yer maydonlarida “bir kontur-bir mahsulot” dasturida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish orqali tarmoqda o‘rsh sur‘atlari ta‘minlanadi;
- 100 ming gektar maydonda tezpishar, hosildorligi va tola sifati yuqori bo‘lgan yangi g‘o‘za navlarini joylashtirilishi va har bir hududda 500 gektardan yer maydonida Xitoy texnologiyasini joriy etilishi hisobiga qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishga erishiladi;
- yirik kanalni betonlashtirish orqali suv yo‘qotishlari qisqartiriladi;

Bozor xizmatlari:

- 2023-2024-yillarda xarid qilingan **34 ta** havo kemalarini harid qilish orqali aviaqatnovlar soni **1,4 barobarga** oshiriladi;
- turizm infratuzilmasining yaxshilanishi hisobiga turizm xizmatlar eksport hajmini **2,5 mlrd AQSH dollarga** yetkaziladi;
- oliy ta‘lim tizimida xususiy sektor ulushining ortishi hisobiga oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi oshirilib boriladi;
- IT-Park rezidentlari sonining ortishi hisobiga axborot va aloqa xizmatlarida barqaror yuqori o‘rsh sur‘atlari ta‘minlanadi;

1.2.3. 2025-2027-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozlari hamda iqtisodiy o‘rshning asosiy yo‘nalishlari.

O‘rta muddatlarga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifa va maqsadlardan kelib chiqilgan bo‘lib, bunda:

2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini **2 barobarga** oshirish va “**daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar**” qatoriga kirish uchun YAIM hajmini **160 milliard AQSH dollariga** va aholi jon boshiga daromadlarni **4 ming AQSH dollariga** yetkazish;

kelgusi 7 yilda asosiy kapitalga **250 mlrd AQSH dollardan** ortiq investitsiyalarni o‘zlashtirish va unda **110 mlrd AQSH dollardan** ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, 2030-yilga borib esa yillik eksport hajmini **45 mlrd AQSH dollariga** yetkazish;

Davlat qarzini YAIMga nisbatan **50 foizdan** oshirmaslik vazifasini ta’minlash.

Shundan kelib chiqib, iqtisodiy o‘sinh sur’atlarini 2024-yilda **6 foiz**, 2025-yilda **6,2 foiz** va 2026-yilda **6,4 foiz** darajasida ta’minlash orqali aholi jon boshiga YAIM 2024-yilda **2 698 AQSH dollardan** 2026-yilga borib **3 055 AQSH dollariga** yetkazish prognoz qilinmoqda.

4-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlari

	2022	2023	2024	2025	2026	2027
YAIM o‘sinh sur’ati, foizda	5,7	6,0	6,0	6,2	6,4	6,2-6,4
Aholi jon boshiga YAIM hajmi, AQSH doll.	2 275	2 496	2 698	2 950	3 055	3 200
Sanoat, o‘sinh sur’ati, foizda	5,3	6,0	7,0	7,6	7,5	7-7,5
Qurilish, o‘sinh sur’ati, foizda	6,6	6,4	6,3	7,2	7,3	7-7,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari, o‘sinh sur’ati, foizda	3,6	4,1	4,0	4,1	4,1	4-4,5
Bozor xizmatlari, o‘sinh sur’ati, foizda	16,3	13,7	17-20	14,0	14,9	14,5-15,5

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Shu bilan bir qatorda, 2025-yil va kelgusi **o‘rta muddatli davrda ushbu prognozlarga erishishda quyidagi asosiy yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirilishi** inobatga olingan. Jumladan:

Birinchidan, mamlakat energetika xavfsizligini va samaradorligini ta’minlash, xususan:

– energetika tarmog‘ini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish;

– elektr energiyasining ulgurji va chakana bozorlarini tashkil etish maqsadida tarmoqqa xususiy operatorlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish boʻyicha amaliy harakatlarni boshlash;

– gaz va elektr energiyasi tariflarini erkinlashtirish boʻyicha boshlangan islohotlarni toʻliq yakuniga yetkazish;

– 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiyaning jami isteʼmoldagi ulushini **40 foizga** yetkazish.

Ikkinchidan, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish va xususiylashtirish:

– korporativ boshqaruv sohasini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirish;

– xususiylashtirishning manzilli dasturiga kiritilgan aksiya paketlar (ulushlar) va koʻchmas mulk obyektlarini sotish;

– neft-gaz, kimyo, energetika, transport, bank sohalaridagi yirik korxonalarning aksiya paketlari xalqaro bozorda ommaviy savdolarini, aksiyalarining birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy taklifini amalga oshirish.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xususan:

– issiqxona gazlari emissiyasini tartibga solish;

– mamlakatni 2050-yilgacha kam uglerodli rivojlantirish boʻyicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish;

– xalqaro issiqxona gazi savdosi boʻyicha loyihalarni amalga oshirish;

– iqtisodiyot tarmoq va sohalarida energiya tejamkorlikni taʼminlash, energiyani boshqarish tizimini xalqaro standartga oʻtkazish.

Toʻrtinchidan, qishloq va suv xoʻjaligida islohotlarni kuchaytirish, aholini oziq-ovqat bilan taʼminlashni tubdan yaxshilash ishlarini jadallashtirish, xususan:

– qishloq xoʻjaligi infratuzilmalari (*urugʻchilik, texnika va kimyoviy oʻgʻitlar, ixtisoslashuv bozorlar*)ni yaxshilash tadbirlarini tashkil etish va ularni moliyalashtirish;

– qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hosilini sugʻurtalash tizimini tashkil etish;

– daryolar, magistral kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimini joriy etish;

– suv sarfini qisqartirishga doir izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– irrigatsiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, DXSH mexanizmlarini keng joriy qilish hisobiga xususiy investitsiyalar oqimini koʻpaytirish.

Beshinchidan, telekommunikatsiya sohasini isloh qilish, xususan:

- telekommunikatsiya sohasini erkinlashtirish, mustaqil regulyatorni tashkil etish hamda tadbirkorlarga soha infratuzilmasidan foydalanishga ruxsat berishning qonuniy asoslarini yaratish;

- barcha aholi punktlarini internet bilan to‘liq qamrab olish va uning tezligini 2030-yilga qadar **10 barobar** oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini **5 000 Gbit/s.ga** yetkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini **100 foizga** yetkazish;

- xususiy provayderlarga xalqaro internet tarmoqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishga ruxsat berish.

Oltinchidan, transport infratuzilmasini rivojlantirish, xususan:

- pulli avtomobil yo‘llari tizimining (*qurish, rekonstruksiya va ekspluatatsiya qilish*) huquqiy asosini yaratish hamda loyihalashtirish va qurish ishlarini boshlash;

- jamoat transporti infratuzilmasini demografik va iqtisodiy o‘sish, xususan urbanizatsiya jarayonlaridan kelib chiqib rivojlantirish, sohani erkinlashtirish va xususiy sektorni jalb etish;

- temir yo‘l sohasini rivojlantirish uchun tegishli huquqiy muhit, tadbirkorlik faoliyati uchun sharoit yaratish;

- Buxoro, Urganch va Toshkent xalqaro aeroportlarida DXSH asosida loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy investorlarni jalb qilish.

Yettinchidan, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, xususan:

- turizmni rivojlantirishning yangi modeli va “Turistik investor” tizimini joriy qilish, shu jumladan turistlar hisobini yuritishni UNWTO tavsiyalariga moslashtirish;

- turizmning yangi turlariga ruxsat berish (*geologiya, sanoat va harbiy turizm*);

- hududlarda tuman markazlarini rivojlantirish, aglomeratsiya va turizm maskanlarini tashkil etish, xizmat ko‘rsatish va servis obyektlarini (“service point”) barpo etishga qaratilgan master rejalarni ishlab chiqish orqali mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulay muhit yaratish.

Sakkizinchiidan, biznes va investitsiya muhitini yaxshilash, eksportni oshirish, xususan:

- tadbirkorlik subyektlari va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, soliq va bojxona ma’muriyatchiligini biznes va aholi uchun soddalashtirish va raqamlashtirish orqali ularning ishonchini mustahkamlash;

– kichik va o‘rta biznes faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish;

– aholi bandligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish, tartibli migratsiyani rivojlantirishda xususiy bandlik agentliklari faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish;

– tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha o‘zaro hisob-kitob va tovar ayirboshlash tizimini yaxshilash;

– O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishini jadallashtirish bo‘yicha amaliy choralari ko‘riladi.

II. Soliq va budget siyosatining uzoq muddatdagi asosiy maqsadlari

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqib fiskal siyosatning uzoq muddatdagi asosiy maqsadlari quyidagilar:

Aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishida:

- barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish va buning uchun YAIM hajmini 160 milliard AQSh dollariga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming AQSh dollariga yetkazish;
- inson kapitaliga xarajatlarning ustuvorligini, ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan mablag‘larning manzilliligini kuchaytirish va samaradorligini ta’minlash;
- aholining real daromadlarini o‘stirish maqsadida budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalarni har yilgi inflatsiya darajasidan kam bo‘lmagan miqdorlarda oshirib borish;
- davlat pensiya tizimini isloh qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini rivojlantirish.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishida:

- o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining YAIMga nisbatini 50 foizdan oshmasligini ta’minlash;
- “Yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish orqali daromadlar bazasini kengaytirish;
- barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda soliq tizimini raqamlashtirish va soddalashtirish;
- yashil soliqqa tortish va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Fiskal barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishida:

- konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini YAIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik;
- soliq, bojxona va budget siyosatini JST talablariga uyg‘unlashtirish;
- soliq ma’murchiligini takomillashtirish va uning samaradorligini yanada oshirish.

Xarajatlarning natijadorligini ta’minlash yo‘nalishida:

- “Natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish” amaliyotiga o‘tish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat budjeti xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlab qolish;
- gender, “yashil budgetlashtirish” tamoyillarini joriy etish;
- davlat moliyasini boshqarish tizimini xalqaro talablardan kelib chiqib samaradorligi va shaffofligini kuchaytirish borasidagi islohotlarni davom ettirish;

– budget xarajatlarining inkluzivligini kuchaytirish.

2.1. Fiskal siyosatning asosiy maqsadlariga erishishda soliq-budget intizomini ta'minlash

Uzoq muddatli maqsadlarga erishish maqsadida Hukumat 2025–2027-yillar davomida konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini YAIMning 3 foiz darajasidan oshirmaslik majburiyatini saqlab qoladi. Bunda, soliq yig'imi va ma'murchiligini yanada yaxshilash orqali daromadlarni oshirish, xarajatlar oshishini nazorat qilish hamda ularning samaradorligi va natijadorligini kuchaytirish choralari davom ettiriladi.

Davlat budjeti daromadlarini oshirish uchun o'rta muddatda **soliq siyosati islohotlarini**, shu jumladan, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish hisobiga soliq to'lovchilar qamrovini oshirish va qo'shimcha daromadlar manbasini yaratish, soliq-bojxona imtiyozlarini tanqidiy ko'rib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy samara bermayotgan imtiyozlarni bekor qilish ishlari davom ettiriladi.

Shu bilan bir qatorda, xarajatlarning o'rta muddatli prognozlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bunda, xarajatlar tarkibida **doimiy joriy xarajatlar** (*ish haqi, stipendiyalar, ijtimoiy nafaqalar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal to'lovlar uchun xarajatlar, davlat qarziga xizmat ko'rsatishning foiz xarajatlari, joriy ta'mirlash, asosiy vosita va inventarlar xarid qilish, boshqa xizmatlar uchun to'lovlar va shu kabi boshqa xarajatlar*) va **subsidiyalar** ulushi yuqori bo'lgani sababli fiskal intizomni ta'minlash uchun xarajatlarni optimallashtirishda asosiy e'tibor **budget subsidiyalariga** qaratiladi.

Jumladan:

yoqilg'i-energetika resurslari narxlarining shakllanishini bosqichma-bosqich **bozor tamoyillariga o'tkazishni** davom ettirish orqali budgetdan ushbu sohalar uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorlarini kamaytirish, xususan **tabiiy gaz, elektr energiya, issiqlik ta'minoti uchun** subsidiyalar miqdori 2025-yilda 2024-yilga nisbatan **33 f.b.ga kamayishi prognoz qilinmoqda**, 2027-yilga kelib ushbu xarajatlarni **keskin qisqartirish** choralari ko'riladi va iqtisod bo'ladigan mablag'lar ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltiriladi;

o'rta muddatli davrda xorijiy ekspertlarning texnik ko'magida **Davlat budjeti xarajatlari tuzilmasini to'liq qayta ko'rib chiqish** choralari ko'riladi.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish orqali 2025–2027-yillarda konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi YAIMga nisbatan 3 foizlik chegara doirasida ushlab turiladi va bu orqali budget taqchilligini moliyalashtirish uchun tashqi qarzlarni jalb qilishning yillik hajmini joriy yilgi miqdorda (2,5 mlrd AQSh doll.) saqlash choralari ko'riladi.

Yuqoridagilar natijasida oʻrta muddatda davlat qarzining YAIMga nisbati 50 foizdan oshmasligini taʼminlash boʻyicha koʻrilayotgan choralar kuchaytiriladi.

Budjet taqchilligining oshishi natijasida tashqi qarz mablagʻlarining oʻsishi va buning oqibatida investitsiyaviy jozibadorlikning yomonlashishi hamda foiz stavkalarining oshishi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy oʻsishga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Shuningdek, XVJ tomonidan Oʻzbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan bir qator tavsiyalar berilgan boʻlib, bunda, oʻrta muddatli davrda:

budjet-soliq siyosatining barqarorligini taʼminlash, jumladan davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash xususiy sektorda unga boʻlgan ishonchning mustahkamlanishi, investitsiya va isteʼmol xarajatlarining oshishi hamda moliya bozoridagi foiz stavkalari va milliy valyutani ayirboshlash kurslarining oshib ketmasligiga;

davlat tomonidan iqtisodiy tarmoqlarga taqdim etilayotgan samaradorligi past boʻlgan yordamlarning qayta koʻrib chiqilishi iqtisodiyotda sogʻlom raqobat muhitining shakllanishiga;

budjet xarajatlari tarkibidagi aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash va kompensatsiya toʻlovlari manzilliligini taʼminlash, tovar va xizmatlar xarid qilish xarajatlarini optimallashtirish Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirishga;

Soliq islohotlarining davomi sifatida soliq maʼmurchiligini takomillashtirish, shu jumladan soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish orqali soliq bazasini yanada kengaytirish, aksiz soligʻi stavkalarini bosqichma-bosqich indeksatsiya qilish, daromadlarni deklaratsiyalash tizimini soddalashtirish va bosqichma-bosqich majburiy taqdim etish amaliyotini joriy etish orqali jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻini undirish tartibini yanada takomillashtirish budjet daromadlari oʻsishini taʼminlovchi omillar sifatida xizmat qilishi taʼkidlangan.

Fiskal siyosatning asosiy maqsadlariga erishish uchun Hukumat tomonidan oʻrta muddatli davr uchun belgilab olingan **soliq va budjet siyosatining asosiy yoʻnalishlari** bilan mazkur strategiyaning **2.2-boʻlimida** tanishish mumkin.

2.2. Fiskal maqsadlardan kelib chiqib soliq va budget siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Fiskal siyosatning asosiy maqsadlariga erishish uchun Hukumat tomonidan o‘rta muddatli davr uchun **soliq va budget siyosatining** quyidagi **asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi.**

2.2.1. O‘rta muddatli davr uchun soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

Soliq siyosatining o‘rta muddatdagi asosiy vazifasi teng raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilish, tadbirkorlik faoliyatini va investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish, soliq tizimining adolatlilik tamoyillari asosida yuritilishini hamda budget daromadlarining barqarorligini ta‘minlashdan iborat.

1) Daromaddan olinadigan soliq stavkalarini takomillashtirish:

- turli xil daromad manbalariga soliq stavkalarini adolatlilik tamoyillaridan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqish;
- raqamli iqtisodiyotni soliqqa solish tizimini takomillashtirish;
- daromadlarga solinadigan soliqlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarning samaradorligini o‘rganish va samarasiz imtiyozlarni bekor qilish.

2) QQS zanjirining yaxlitligini va uzluksizligini ta‘minlash:

- QQS zanjirining uzluksizligini ta‘minlash choralarini davom ettirish;
- QQS bo‘yicha taqdim etilgan imtiyozlarni optimallashtirish ishlarini davom ettirish;
- Bozor tamoyillariga asoslangan xavflarni boshqarish tizimini joriy etish orqali QQSning samara ko‘rsatkichlarini yaxshilash.

3) Aksiz solig‘ini takomillashtirish:

- JST talablariga muvofiq, aksiz solig‘i undiriladigan mahalliy va import tovarlariga aksiz solig‘i stavkalarini bosqichma-bosqich bixillashtirish;
- aksiz solig‘i stavkalarini inflatsiya darajasidan kam bo‘lmagan miqdorda indeksatsiya qilib borish.

4) Atrof muhitni asrashni rag‘batlantirish maqsadida resurs solig‘i stavkalarini qayta ko‘rib chiqish:

- resurs soliqlari bo‘yicha amaldagi imtiyozlarni qisqartirish;
- soliq solish maqsadida mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash tizimini bosqichma–bosqich joriy etish va mol-mulk stavkalarini shu asosda qayta ko‘rib chiqish;
- suv resurlaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish vazifasidan kelib chiqib suv solig‘i stavkalarini qayta ko‘rib chiqish;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk va yer solig‘i stavkalarini inflatsiya darajasida indeksatsiya qilib borish.

2.2.2. O'rta muddatli davr uchun budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari.

1) Budjet barqarorligini ta'minlash:

davlat qarzining YAIMga nisbatan 50 foizdan oshmasligi uchun o'rta muddatlarga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish;

jami davlat qarzida davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarishning cheklangan sof hajmi ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish orqali **valyuta xatarlarini kamaytirish** hamda **tashqi qarzlarni jalb qilish** bo'yicha **yillik imzolanadigan** yangi bitimlarning cheklangan hajmi oshishini oldini olish;

budjet siyosatining uzoq muddatdagi asosiy maqsadlariga erishish uchun qat'iy **fiskal intizomni ta'minlash**, bunda:

daromadlar prognoz ko'rsatkichlarining to'liq tushishini ta'minlash va soliq bazasini kengaytirish orqali qo'shimcha manbalar izlab topish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash hamda budjetni konsolidatsiyalash orqali **taqchillikni** o'rta muddatli davrda YAIMga nisbatan **3 foizdan** oshib ketmasligini ta'minlash;

o'rta muddatda taqchillikni tasdiqlangan miqdorlarda saqlab turish orqali qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha budjet xarajatlari oshishining oldini olish;

yoqilg'i-energetika resurslari va aholini **jamoat transportida** tashish xizmatlari narxlarining shakllanishini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o'tkazishni davom ettirish orqali budjetdan ushbu sohalar uchun ajratiladigan mablag'lar miqdorlari oshishini oldini olish;

xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, budjet xarajatlari tuzilmasini to'liq qayta ko'rib chiqish choralarini ko'rish.

2) Yillik budjetni shakllantirishda "Natijaga yo'naltirilgan budjet" tizimi qamrovini bosqichma-bosqich oshirib borish, bunda:

Iqtisodiyot va moliya hamda Qishloq xo'jaligi vazirliklarining 2025–2027-yillar uchun budjetlarini tajriba tariqasida **budjet dasturlari** asosida shakllantirish;

tajriba natijasidan kelib chiqib, o'rta muddatda bosqichma-bosqich **barcha vazirlik va idoralarning budjet xarajatlarini budjet dasturlari** kesimida ishlab chiqish va buning uchun vazirlik va idoralarning salohiyatini oshirish, xodimlarga tegishli treyninglar o'tkazish.

3) Budjet jarayonini takomillashtirish orqali **budjet kalendarini qayta ko'rib chiqish**:

budjet ko'rsatkichlarini ishlab chiqish sifatini oshirish hamda ishonchliligini yanada kuchaytirish maqsadida budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning **vaqtinchalik xarajatlar smetalarini tuzish davrini 2025-yildan boshlab 3 oydan (amalda I chorak uchun tuziladi) 1 oyga (yanvar oyi uchun)** tushirish hamda keyinchalik vaqtinchalik xarajatlar smetasi tuzish tartibini bekor qilish;

Bunda, budget tashkilotlari va budget mablagʻlari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, budget mablagʻlarini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetalarini (*bazaviy smeta*) tasdiqlash muddatini oldinga surish orqali Fiskal strategiyani ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish muddatlari qayta koʻrib chiqilib, Fiskal strategiyani Vazirlar Mahkamasida muhokama qilish davriyligini uzaytirish hamda buning natijasida hujjatning ishonchliligini oshirish boʻyicha takliflar ishlab chiqiladi.

4) **Gʻaznachilik xizmatini** yanada takomillashtirish:

Bunda:

Oʻzbekiston Respublikasida **Gʻaznachilik xizmati qoʻmitasining istiqboldagi ustuvor yoʻnalishlarini belgilash;**

budget qonunchiligi buzilishining oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli asosda tashkil etish hamda nazorat tadbirlarini **avtomatlashtirilgan xavf-tahlili** asosida oʻtkazish imkoniyatini yaratish;

Davlat budjeti likvidligini oshirish va samarali boshqarishda zamonaviy instrumentlarni amaliyotga joriy etish ishlarini davom ettirish.

5) Budget siyosatida **inson kapitali rivojlanishiga** doir xarajatlar ustuvorligini taʼminlash.

Bunda, keyingi yillarda ham jami Davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismini taʼlim, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy himoya, fan, madaniyat va sportni rivojlantirish, muhtoj aholini uy-joy bilan taʼminlash va boshqa ijtimoiy tadbirlarga yoʻnaltirish.

6) Aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning real daromadlari oʻsishini taʼminlash va ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish:

Bunda:

budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorlarini yillik inflatsiya darajasidan kam boʻlmagan miqdorlarda oshirib borish;

davlat pensiya tizimini isloh qilish.

7) **Budget ochiqligini** taʼminlash hamda budgetni shakllantirishda **fuqarolar ishtirokini** yanada oshirish:

tashabbusli budgetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish, jumladan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida “Ochiq budget” portalida loyihalarni tashabbuskorlar tomonidan qabul qilib olish mexanizmini toʻliq joriy etish;

majburiy ovoz toʻplashga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish;

yuqori sinf oʻquvchilari orasida “Mening maktabim” loyihasini ishga tushirish;

xalqaro amaliyotdan kelib chiqib jarayonni yanada shaffoflashtirish uchun fuqarolarga o'z mablag'larini "legal" yo'l orqali o'z loyihalariga yo'naltirish imkonini berish maqsadida "kraudfanding" tizimini joriy etish imkoniyatlarini o'rganish.

8) Davlat sektorida **ichki nazorat** va **ichki auditni** takomillashtirish:

Bunda:

vazirlik va idoralarining ichki nazorat tizimini baholash orqali "O'zbekistonda ichki nazorat va ichki auditni rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqish;

ichki audit tizimi qonunchilik asoslarini mustahkamlash, birlashtirish va tizimlashtirish maqsadida "Davlat ichki auditi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish.

9) Iqtisodiy va moliyaviy natijalarni hamda gender tenglikni yaxshilashni qo'llab-quvvatlash uchun budjet jarayonini takomillashtirish:

a) Davlat budjeti loyihasini tayyorlash hamda ko'rib chiqishda **Milliy BRMni** aks ettirish:

Bunda:

Milliy BRM bo'yicha budjet markirovkasini amalga oshirish;

Davlat budjetini tuzishda Milliy BRM natijalarini hisobga olish;

Milliy BRMni Davlat budjeti parametrlariga kiritish;

Milliy BRMga erishish uchun yo'naltirilayotgan budjet xarajatlarini baholash uslubiyotini ishlab chiqish;

Davlat budjeti loyihasini shakllantirish va ijrosi bo'yicha hisobotlarda budjet xarajatlarining Milliy BRMga muvofiqligini joriy etish.

b) "**Yashil budjetlashtirish**" tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish;

Bunda Davlat budjetini iqlim jihatidan markirovkalash va "yashil" xarajatlar uslubiyoti asosida tasdiqlangan budjet xarajatlarining iqlim o'zgarishi bilan bog'liqligi bo'yicha markirovkalash hamda o'rta muddatli davr uchun Fiskal strategiya, Budjetnoma, shuningdek, "Fuqarolar uchun budjet" axborot nashrlarida e'lon qilib borish;

v) gender tenglikka erishishni budjet jarayonlariga integratsiyalash orqali **gender tenglikka yo'naltirilgan budjetlashtirish** hamda gender jihatlarni hisobga olgan holda, dasturiy budjetlashtirish tizimini amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish;

g) **atrof-muhit muhofazasi** bo'yicha davlat monitoringini samarali tashkil etish, iqlim xavfini baholash va kamaytirishga qaratilgan iqlim monitoringi tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinishini kengaytirish va suv yetkazish tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy qilish.

10) **Investitsiya dasturlarini shakllantirish va ijro etish** tizimini yanada takomillashtirish:

a) Davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash mezonlariga (PIMA) muvofiqligini hamda investitsiya dasturlarini shakllantirish tizimini **budjet jarayoni bilan to'laonli bog'liqligini ta'minlash** maqsadida quyidagilarni amalga oshirish:

– aktivlarni yaratish, boshqarish hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish maqsadida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish jarayonini budjet jarayoni bilan uyg'unlashtirish;

– markazlashmagan va davlat korxonalariga tegishli investitsiya loyihalarini boshqarish siyosatini ishlab chiqish;

– yangi davlat investitsiya xarajatlari bilan birgalikda ularning maqsadga muvofiqligi hamda atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi tahlilini taqdim etishni yo'lga qo'yish.

b) **DXSh** asosida amalga oshiriladigan loyihalarning daromadliligi va Davlat budjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo'nalishlari bo'yicha boshqarish tizimini joriy etish.

Yuqoridagi o'rta muddatli davr uchun soliq va budjet siyosati yo'nalishlarini tizimlashtirish, shuningdek, Davlat moliyasini PEFA me'zonlari bo'yicha baholash natijalaridan kelib chiqib, **2025–2030-yillarga mo'ljallangan Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi** ishlab chiqiladi.

2.3. 2025-yil uchun konsolidatsiyalashgan budgetning jamlanma parametrlari prognozi hamda 2026–2027-yillarga mo‘ljallari.

2027-yilga borib O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budgeti **daromadlari** 2022-yildagi YAIMning 32,3 foizidan 30,5 foizigacha, **xarajatlari** 36,2 foizidan 33,5 foizigacha tushish prognoz qilingan.

Fiskal maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi YAIMga nisbatan 3 foizdan oshmasligi, bunda Davlat budgeti va DMJ budgetlari taqchilligi 2025-yilda 1,3 foiz, 2026-yilda 1,4 foiz hamda 2027-yilda 1,3 foiz miqdorida prognoz qilingan.

5-jadval. Konsolidatsiyalashgan budget jamlanma parametrlari, trln so‘m


		Ijro		Parametr	Kutilma	Prognoz		
		2022	2023	2024	2024	2025	2026	2027
I.	Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari	286,5	321,9	375,0	379,4	437,8	520,1	587,9
	Davlat budgeti daromadlari	201,9	231,7	270,7	274,7	325,1	379,9	424,8
	DMJ daromadlari*	37,7	47,0	55,3	55,3	64,3	77,3	90,2
	TTJga tushumlar	8,6	11,3	18,9	19,2	16,0	27,6	32,8
	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalariga tushumlar	38,3	32,4	30,5	30,5	32,4	35,6	40,5
II.	Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	321,7	381,0	427,6	432,1	484,3	572,3	646,2
	Davlat budgeti xarajatlari	236,7	281,1	312,9	315,0	347,1	407,7	453,0
	DMJ xarajatlari*	38,3	43,3	53,6	53,6	62,2	73,0	86,4
	TTJ mablag‘larining sarflanishi	8,1	36,9	18,8	21,2	22,8	27,6	32,8
	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag‘larining sarflanishi	33,6	31,2	30,5	30,5	32,4	35,6	40,5
	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	5,7	9,3	11,8	11,8	19,9	28,3	33,6
III.	DMJga transfertlar	27,7	30,7	32,2	32,2	35,6	39,6	42,2
IV.	Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi	-35,2	-59,2	-52,6	-52,7	-46,6	-52,2	-58,3
VI.	Davlat budgeti va DMJ taqchilligi	-35,4	-46,2	-40,9	-39,0	-19,9	-23,9	-24,7

* Budgetlararo transfertlarsiz

5a-jadval. Konsolidatsiyalashgan budget jamlanma parametrlari, YAIMga nisbatan foizda

		Ijro		Parametr	Kutilma	Prognoz		
		2022	2023	2024	2024	2025	2026	2027
I.	Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari	32,3	30,2	28,8	29,1	28,4	30,1	30,5
	Davlat budjeti daromadlari	22,7	21,7	20,8	21,1	21,1	22,0	22,0
	DMJ daromadlari	4,2	4,4	4,2	4,2	4,2	4,5	4,7
	TTJga tushumlar	1,0	1,1	1,4	1,5	1,0	1,6	1,7
	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar	4,3	3,0	2,3	2,3	2,1	2,1	2,1
II.	Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	36,2	35,7	32,9	33,2	31,4	32,9	33,1
	Davlat budjeti xarajatlari	26,6	26,4	24,0	24,2	22,5	23,6	23,5
	DMJ xarajatlari	4,3	4,1	4,1	4,1	4,0	4,2	4,5
	TTJ mablag'larining sarflanishi	0,9	3,5	1,4	1,6	1,5	1,6	1,7
	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larining sarflanishi	3,8	2,9	2,3	2,3	2,1	2,1	2,1
	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	0,6	0,9	0,9	0,9	1,3	1,6	1,7
III.	DMJga transfertlar	3,1	2,9	2,5	2,5	2,3	2,3	2,2
IV.	Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi	-4,0	-5,5	-4,0	-4,0	-3,0	-3,0	-3,0
V.	Davlat budjeti va DMJ taqchilligi	-4,0	-4,3	-3,1	-3,0	-1,3	-1,4	-1,3

5-rasm. Konsolidatsiyalashgan budget balansi, YAIMga nisbatan foizda




2025-yilgi konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini, shuningdek, davlat qarzining asosiy qismini qaytarish hamda tijorat banklariga joylashtiriladigan resurslar, shu jumladan, uy joy dasturi uchun ajratiladigan xarajatlarni quyidagi manbalardan qoplash rejalashtirilgan:

6-jadval. Taqchillikni moliyalashtirish manbalari

Tashqi manbalar	
XMI qarz mablagʻlari hisobidan 33,8 trln soʻm	davlat dasturlariga tashqi qarzlarini jalb qilish – 19,9 trln soʻm
Ichki manbalar	
davlat gʻaznachilik obligatsiyalarini muomalaga chiqarish – 30,0 trln soʻm	davlat aktivlarini xususiylashtirish hisobidan – 10,0 trln soʻm
avvalgi yillarda berilgan budget ssudalarning qaytishi – 2,8 trln soʻm	yil boshiga qoldiq mablagʻlar hisobidan – 8,8 trln soʻm

6-rasm. Oʻzbekiston va hamkor davlatlar hamda boshqa davlatlar budget koʻrsatkichlari.



Manba: IMF/Fiscal monitor/ Fiscal policy in the Great Election Year. 2024 apr.

2.3.1. 2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi qonunida belgilangan budget ko'rsatkichlarining yangilangan prognozlardan farqi.

Soliq va budget siyosatidagi o'zgarishlar, jumladan, tushumlarni oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar, 2023-yilning IV choragida va 2024-yilning o'tgan davri mobaynida qabul qilingan dastur va tadbirlar uchun qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishi natijasida 2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun bilan tasdiqlangan **2024–2025-yillar uchun budget ko'rsatkichlari taqchillikning tasdiqlangan prognozi doirasida** qayta ko'rib chiqildi.

7-jadval. 2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi qonunida belgilangan budget ko'rsatkichlarining yangilangan prognozlardan farqi, trln so'm

		O'RQ–886		Prognoz “+” ko'p, “-” kam	
		2024	2025	2024*	2025
I.	Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari	375,0	452,6	+4,3	-14,8
1.	Davlat budjeti daromadlari**	270,4	330,6	+4,0	-5,9
2.	DMJ daromadlari**	55,3	63,9	-	+0,4
3.	TTJ tushumlari	18,9	22,8	+0,3	-6,8
4.	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lariga tushumlar	30,5	35,3	-	-2,9
II.	Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari	427,6	498,3	+4,4	-14,0
1.	Davlat budjeti xarajatlari**	280,7	323,8	+2,1	-12,3
2.	DMJ xarajatlari	85,8	99,1	-	-1,3
3.	TTJ mablag'larining sarflanishi	18,8	22,8	+2,3	-
4.	Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larining sarflanishi	30,5	35,3	-	-2,9
5.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	11,8	17,4	-	+2,5
III.	DMJga transfertlar	32,2	38,8	-	-3,2
IV.	Konsolidatsiyalashgan budget saldosi	-52,6	-45,7	+0,1	+0,9
V.	Davlat budjeti va DMJ saldosi	-40,9	-28,4	-1,9	-8,5

* - kutilayotgan ijro, ** - budgetlararo transfertlarsiz

Konsolidatsiyalashgan budget ko'rsatkichlarining qayta ko'rib chiqilishi natijasida kelib chiqqan **farqlar, asosan, quyidagilar bilan tushuntiriladi:**

2024-yil:

Konsolidatsiyalashgan budget daromadlaridagi farqning asosiy sabablari:

– prognozda ko'zda tutilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (*inflatsiya, YAIM tarkibi, valyuta kursi, oltin va misning jahon bozoridagi o'rtacha narxining oshishi*) qaytadan ko'rib chiqilganligi;

– soliq to‘lovchilarning moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar (misol uchun, energoresurslar tariflarining o‘zgarishi natijasida yoqilg‘i-energetika korxonalari tushumlarining ko‘payishi, boshqa sohalarida ishlab chiqarish, taklif hajmining oshishi);

– import hajmi o‘shish sur‘atlarining sekinlashuvi (xususan, joriy yilning yanvar–aprel oylarida import qilingan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 foizgacha sekinlashgan);

– soliq ma‘murchiligining kuchaytirilishi natijasida mahalliy soliqlar bo‘yicha tushumlarning ko‘payishi;

– sohalar kesimida tovarlar va xizmatlar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmining o‘zgarganligi.

Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlaridagi farqning asosiy sabablari:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq ayrim sohalarga qo‘shimcha mablag‘lar ajratilishi;

– yil boshidagi qoldiq mablag‘lari va mablag‘larning o‘zlashtirilishiga qarab DMJlariga transfertlarning iqtisod qilinishi;

– moliya yili davomida qabul qilingan qarorlar bilan strategik loyihalarni moliyalashtirish hisobiga TTJ xarajatlarining oshishi va boshqalar.

2025-yil:

Konsolidatsiyalashgan budget daromadlaridagi farqning asosiy sabablari:

– import qiymatining 2023-yildagi ko‘zda tutilgan prognozga nisbatan qayta ko‘rib chiqilishi natijasida bojxonadan tushumlar prognozining kamayishi;

– jahon bozorida tovar narxlari o‘zgarishining budget daromadlariga ta‘siri;

– budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari daromadlari prognozlarining aniqlashtirilishi.

Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlaridagi farqning asosiy sabablari, 2024-yil uchun Davlat budgeti to‘g‘risidagi qonuni bilan tasdiqlangan 2025-yil mo‘ljallari quyidagi xarajatlarning qayta ko‘rib chiqilgani hisobiga o‘zgarishi:

– tabiiy gaz va elektr energiyasini xarid qilish hamda sotish narxlari o‘rtasidagi salbiy tafovutni moliyalashtirish uchun subsidiyalarning kamayishi;

– davlat dasturlari va markazlashgan investitsiya xarajatlari uchun XMI hisobidan jalb qilinadigan mablag‘lar oshishi hisobiga budgetdan ushbu yo‘nalishlarga ajratiladigan xarajatlarning qayta ko‘rib chiqilishi;

– budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari xarajatlari mo‘ljallarining qisqartirilishi.

2.3.2 Davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning oʻrta muddatli davr uchun prognozlari.

2.3.2.1 Davlat budjeti daromadlarining 2025-yilgi prognozi va 2026–2027 yillar uchun moʻljallari

Davlat budjeti daromadlari 2025-yilda YAIMning 2022-yildagi 22,7 foizidan 21,1 foizigacha pasayishi (*asosan QQS stavkasining pasayganligi hisobiga*) prognozi qilingan boʻlib, yashirin iqtisodiyot koʻlamini qisqartirish, soliq imtiyozlarini qisqartirish va soliq maʼmurchiligini takomillashtirish hisobiga 2026–2027-yillarda YAIMga nisbatan 22 foizgacha koʻtarilishi prognoz qilinmoqda.

2024-yil uchun kutilayotgan ijro.

2024-yil uchun Davlat budjeti daromadlari qayta baholanib, 2024-yil uchun budget qonuni bilan tasdiqlangan prognozlarga nisbatan **4 trln soʻmga koʻp** yoki **274,7 trln soʻmni** tashkil etishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, **jahon iqtisodiyoti oʻsishining belgilangan prognozga nisbatan keskin kamayishi, import hajmining kamayishi va ayrim soha korxonalarining moliyaviy holati qoniqarsizligi hisobiga budget daromadlarining ushbu prognozga nisbatan past boʻlish xavflari saqlanib qoladi.**

8-jadval. Davlat budjeti daromadlari oʻtgan yillar uchun ijrosi hamda keyingi yillar uchun prognozi, trln soʻm

Soliq turlari	Ijro		Prognoz	Kutilma	Prognoz		
	2022	2023	2024	2024	2025	2026	2027
Davlat budjeti daromadlari, jami	201,9	231,7	270,7	274,7	325,1	379,9	424,8
Bevosita soliqlar	64,4	73,1	85,6	87,3	103,5	119,4	133,7
Foyda soligʻi	37,7	40,8	44,3	46,0	51,4	58,6	65,9
Aylanmadan olinadigan soliq	2,5	2,4	2,9	2,9	3,6	4,2	4,7
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	24,3	29,9	38,5	38,5	48,5	56,5	63,1
Bilvosita soliqlar	71,4	83,3	111,7	101,6	127,8	154,6	174,7
QQS	52,2	57,9	74,0	70,1	89,1	105,7	119,8
Aksiz soligʻi	13,5	15,8	22,8	19,4	24,6	31,4	35,8
Bojxona boji	5,7	9,6	14,8	12,1	14,2	17,5	19,1
Resurs soliqlari	23,9	28,1	31,8	34,9	38,8	43,8	46,8
Mol-mulk soligʻi	4,0	5,1	6,7	7,3	8,3	9,4	9,4
Yer soligʻi	5,3	6,9	7,2	7,9	9,2	10,3	10,3
Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	13,9	15,3	16,7	18,6	19,8	22,3	25,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,7	0,8	1,3	1,1	1,4	1,8	2,0
Boshqa daromadlar	42,1	47,2	41,6	50,9	55,0	62,2	69,6

8a-jadval. Davlat budjeti daromadlari o'tgan yillar uchun ijrosi hamda keyingi yillar uchun prognozi, YAIMga nisbatan, foizda

Solliq turlari	Ijro		Prognoz	Kutilma	Prognoz		
	2022	2023	2024	2024	2025	2026	2027
Davlat budjeti daromadlari, jami	22,7	21,7	20,8	21,1	21,1	22,0	22,0
Bevosita soliqlar	7,3	6,9	6,6	6,7	6,7	6,9	6,9
Foyda solig'i	4,2	3,8	3,4	3,5	3,3	3,4	3,4
Aylanmadan olinadigan soliq	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2,7	2,8	3,0	3,0	3,1	3,3	3,3
Bilvosita soliqlar	8,0	7,8	8,6	7,8	8,3	9,0	9,1
QQS	5,9	5,4	5,7	5,4	5,8	6,1	6,2
Aksiz solig'i	1,5	1,5	1,8	1,5	1,6	1,8	1,9
Bojxona boji	0,7	0,9	1,1	0,9	0,9	1,0	1,0
Resurs soliqlari	2,7	2,6	2,4	2,7	2,5	2,5	2,4
Mol-mulk solig'i	0,5	0,5	0,5	0,6	0,5	0,5	0,5
Yer solig'i	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,5
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1,6	1,4	1,3	1,4	1,3	1,3	1,3
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Boshqa daromadlar	4,7	4,4	3,2	3,9	3,6	3,6	3,6

2024-yilda Davlat budjeti daromadlari prognozga nisbatan qo'shimcha 4 trln so'm bilan ijro bo'lishi kutilmoqda.


Xususan, bevosita soliqlar bo'yicha 87,3 trln so'm (+1,7 trln so'm), bilvosita soliqlar 101,6 trln so'm (-10 trln so'm), resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i 34,9 trln so'm (+3,0 trln so'm) va boshqa daromadlar 50,9 trln so'm tushishi kutilmoqda.

Joriy yilda O'zbekistondagi asosiy eksport tovarlarining jahon bozoridagi narxining ko'tarilishi hisobiga qo'shimcha daromadlar tushushi kutiladi.

Shu bilan birga, import hajmining optimallashtirishi, ayrim korxonalarning tashqi salbiy omillar hisobiga mahsulotlar realizatsiyasining qiyinlashuvi hamda ayrim sanoat loyihalarining ishga tushirilishining kechikishi kabi omillar budjet daromadlariga o'z aks ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

2025-yil uchun prognozlar va 2026–2027-yillarga mo'ljallar.

7-rasm. Soliq turlarining jami daromadlar ulushidagi dinamikasi, foizda



2025-yilda Davlat budjeti daromadlari prognozi 2024-yil uchun kutilayotgan ijroga nisbatan 20,5 foizga o'sib, **325,1 trln so'mni** tashkil etishi kutilmoqda.

Bevosita soliqlardan 2025-yilda **103,5 trln so'mni** yoki Davlat budjeti umumiy daromadlarining **31,8 foizini** yoki YAIMga nisbatan **6,7 foizni** tashkil qilishi prognoz qilingan.

Bunda:

– **foyda solig'i** bo'yicha tushum 2024-yilda kutilayotgan ijroga nisbatan 11,9 foizga o'sib, **51,4 trln so'mni**;

– **aylanmadan olinadigan soliq** 2024-yilda kutilayotgan ijroga nisbatan 25,3 foizga o'sib, **3,6 trln so'mni**;

– **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i** bo'yicha tushum 2024-yilda kutilayotgan ijroga nisbatan 26,0 foizga o'sib, **48,5 trln so'mni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Bilvosita soliqlar daromadlarning asosiy tarkibini tashkil qilishda davom etishi kutilmoqda hamda **127,8 trln so'mni**, Davlat budjeti umumiy daromadlarining **39,3 foizini** yoki YAIMga nisbatan **8,3 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Bunda:

– **QQS** 2024-yilda kutilayotgan ijroga nisbatan 27,1 foizga o'sib, **89,1 trln so'mni** tashkil etishi kutilmoqda.

Bunda, QQSdan manfiy farqni qoplash uchun 2025-yilda tadbirkorlik subyektlariga **30 trln so'm** miqdorida QQS summasi qaytarilishi prognoz qilinmoqda.

– **aksiz solig‘i** bo‘yicha tushumlar **24,6 trln so‘mni** yoki kutilayotgan ijroga nisbatan 26,5 foizga o‘shishi;

– **bojxona bojlari** tushumi kutilayotgan ijroga nisbatan 17 foizga o‘shib, **14,2 trln so‘mni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha tushumlar **38,8 trln so‘mni**, Davlat budjeti daromadlarining **11,9 foizini** yoki YAIMga nisbatan **2,5 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

Bunda:

– resurs soliqlarining asosiy qismi bo‘lgan **yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq** tushumlari **19,8 trln so‘mni** yoki 2024-yilda kutilayotgan ijroga nisbatan 6,6 foizga o‘shishi;

– yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha tushumlar **10,6 trln so‘mni** tashkil qilishi yoki kutilayotgan ijroga nisbatan 18,3 foizga o‘shishi prognoz qilinmoqda.

Davlat budjetining **boshqa daromadlari va soliqsiz tushumlari** 2025-yilda **55 trln so‘mni**, Davlat budjeti umumiy daromadlarining **16,9 foizini** yoki YAIMga nisbatan **3,6 foizni** tashkil qilishi prognoz qilinmoqda.

2026–2027-yillar uchun Davlat budjeti daromadlari mo‘ljallari asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozidan va soliq-bojxona siyosatidagi ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ko‘zda tutilayotgan o‘zgarishlar, iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun Davlat budjeti daromadlari mo‘ljallari **379,9 trln so‘m**, 2027-yilda **424,8 trln so‘m** miqdorida belgilanmoqda.

2.3.2.2. Davlat budjeti xarajatlarning 2025-yilgi prognozi va 2026–2027-yillar uchun mo‘ljallari

Davlat budjeti jami xarajatlari 2025-yilda YAIMga nisbatan 2022-yilgi 26,6 foizdan 22,5 foizgacha pasayishi va 2027-yilga kelib 23 foiz atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

2025-yilda Davlat budjeti xarajatlari 347,1 trln so‘m miqdorida yoki 2024-yil uchun kutilayotgan ijroga nisbatan 10,2 foiz ko‘p mablag‘lar ajratilishi prognoz qilingan.


Keyingi yilda ham xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligi saqlab qolingani bo‘lib, Davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismi yoki 49 foizi ijtimoiy sohaga yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

9-jadval. Davlat budjeti xarajatlari, trln so‘m

		Ijro		Parametr	Kutilma	Prognoz*		
		2022	2023	2024	2024	2025	2026	2027
	Xarajatlar, jami	236,7	281,1	312,9	315,0	347,1	407,7	453,0
1	Ijtimoiy soha	117,7	137,2	151,5	153,6	173,9	210,4	237,2
	Ta’lim	50,3	61,2	69,1	70,5	81,8	102,5	116,3
	Sog‘liqni saqlash	27,3	31,1	33,4	33,5	40,2	50,8	57,7
	Madaniyat	2,3	2,7	2,6	3,0	2,9	3,2	3,6
	Sport	2,0	2,6	2,9	2,9	3,2	3,7	3,8
	Fan	1,5	1,8	2,2	2,2	2,3	2,7	3,1
	Ijtimoiy nafaqalar	19,4	19,2	18,6	18,6	18,6	19,1	21,5
	Pensiya jamg‘armasiga transfertlar	11,1	13,8	16,0	16,0	18,0	20,0	22,0
	Ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal va foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	1,0	1,1	1,5	1,5	2,5	2,7	2,9
2	Iqtisodiyot xarajatlari, shundan	32,3	42,2	38,4	38,4	36,4	36,0	41,1
	Suv xo‘jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	7,1	8,7	9,2	9,2	9,4	10,1	11,1
	Obodonlashtirish	4,8	4,7	3,7	3,7	4,1	4,8	5,4
	Tabiiy gaz narxlaridagi tafovut uchun subsidiyalar	6,7	18,0	9,5	9,5	6,4	4,5	4,9
	Elektr energiyasini xarid qilish va sotish narxlarini o‘rtasidagi salbiy tafovutni moliyalashtirish uchun xarajatlar			2,5	2,5	0,3	-	-
	Issiqlik korxonalariga subsidiyalar	0,9	1,7	4,5	4,5	4,4	4,2	4,0
3	Rivojlantirish dasturlari	35,1	33,6	32,5	32,5	31,1	36,5	42,0
	<i>shu jumladan:</i>							
	Markazlashgan investitsiya	23,4	17,4	20,4	20,4	20,5	24,0	26,0
	Tashabbusli budjetlashtirish	2,5	4,0	7,0	7,0	7,0	8,3	11,7
	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish	2,6	3,3	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5
4	Davlat boshqaruvi, hokimiyati, adliya, prokuratura va sud organlari	12,6	15,9	18,0	18,0	19,0	21,2	23,5
5	Zaxira jamg‘armalari	1,8	1,7	1,6	1,6	1,7	1,9	1,9
6	Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlari	3,5	8,2	16,4	16,4	21,1	21,3	21,5
7	Boshqa xarajatlar	25,5	40,7	45,4	45,4	61,9	78,3	83,2

* ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini, shuningdek ayrim xizmatlar turlari bo‘yicha tariflarni oshirish bilan bog‘liq mablag‘lar tegishli sohalarga taqsimlangan

8-rasm. 2025-yilda Davlat budjeti xarajatlari tarkibi, trln so'm



Izoh: 2024-yil – kutilayotgan ijro

Davlat budjetining joriy va rivojlantirish xarajatlari.

Davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismi (77,4 foizi) **doimiy joriy xarajatlarga**, ya'ni ish haqi, stipendiyalar, ijtimoiy nafaqalar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal to'lovlar uchun xarajatlari, davlat qarziga xizmat ko'rsatishning foiz xarajatlari, joriy ta'mirlash, asosiy vosita va inventarlar xarid qilish va boshqa xizmatlar uchun to'lovlar va boshqalarga to'g'ri keladi.

10-jadval. Davlat budjetining doimiy joriy va rivojlantirish xarajatlari, trln so‘m

	ijro		Parametr	Prognoz
	2022	2023	2024	2025
Davlat budjeti xarajatlari	236,7	282,1	312,9	347,1
Doimiy joriy xarajatlar	159,2	192,0	228,0	267,1
<i>Jami xarajatlardagi ulushi, foizda</i>	<i>67,3</i>	<i>68,0</i>	<i>72,9</i>	<i>77,0</i>
<i>shundan,</i>				
Ish haqi (ijtimoiy soliq bilan), stipendiyalar va ijtimoiy to‘lovlar	131,9	150,3	174,7	194,9
Oziq-ovqat, dori darmon va kommunal to‘lovlar uchun xarajatlar	13,0	16,5	17,6	18,8
Rivojlantirish xarajatlari	77,5	90,2	84,9	79,9
<i>Jami xarajatlardagi ulushi, foizda</i>	<i>32,7</i>	<i>32,0</i>	<i>27,1</i>	<i>23,0</i>
<i>shundan,</i>				
Markazlashgan investitsiya dasturi xarajatlari	22,4	17,4	20,4	20,5
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va topshiriqlariga asosan qayta taqsimlanadigan mablag‘lar	2,5	3,5	3,5	3,5
Tashabbusli budjetlashtirish xarajatlari	2,5	4,1	7,0	7,0
Boshqa rivojlantirish tadbirlari	50,1	65,2	53,2	48,9

Davlat budjeti xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo‘yicha tahlili.

Davlat budjeti xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo‘nalishiga ko‘ra kodlashdan iborat bo‘lib, bu xarajatlarni iqtisodiy yo‘nalishi va to‘lov turlari bo‘yicha guruhlash imkonini beradi.

Iqtisodiy tasnif bo‘yicha Davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismini **ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari** tashkil etib, ushbu xarajatlar jami Davlat budjeti xarajatlarning 2025-yilda 42,8 foizni tashkil etishi yoki YAIMga nisbatan 9,7 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Jumladan, 2025-yilda ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari uchun 148,7 trln so‘m yoki 2024-yilgi tasdiqlangan rejaga nisbatan 22 trln so‘mga ko‘p mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Shundan ijtimoiy sohaning ish xaqi xarajatlari 94 trln so‘mni (*ta’lim – 58 trln so‘m, sog‘liqni saqlash – 31 trln so‘m, madaniyat va sport – 3,7 trln so‘m*) yoki jami ish haqi xarajatlarning 63 foizini tashkil qiladi.

11-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha yoyilmasi, trln so'm


		ijro 2022	ijro 2023	Parametr 2024	Prognoz 2025
	Jami xarajatlar	236,7	281,1	312,9	347,1
1	Ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari	100,0	116,9	126,7	148,7
	<i>YAIMga nisbatan, foizda</i>	11,3	11,0	9,8	9,7
2	Stipendiyalar	1,2	1,5	1,7	2,0
3	Kapital qo'yilmalar	14,0	10,7	20,4	20,5
4	Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	21,3	24,5	26,0	27,2
4.1	Xizmat safarlari xarajatlari	0,2	0,2	0,4	0,4
4.2	Kommunal to'lovlar, shundan:	6,3	8,3	10,1	10,5
	<i>elektroenergiya</i>	5,6	7,3	8,7	8,7
	<i>tabiiy gaz</i>	0,3	0,4	0,6	0,6
	<i>issiq suv va issiqlik energiyasi</i>	0,2	0,3	0,4	0,6
	<i>sovuq suv va kanalizatsiya</i>	0,2	0,2	0,3	0,5
4.3	Saqlash va joriy ta'mirlash	2,7	2,1	1,4	1,4
4.4	Moddiy aylanma vositalar zaxiralariga xarajatlar, shu jumladan:	7,1	8,5	12,5	13,6
	<i>oziq-ovqat mahsulotlari</i>	2,5	3,3	5,5	6,3
	<i>dori-darmonlar va tibbiy vositalar</i>	2,5	2,8	3,1	3,2
	<i>yonilg'i va YMM</i>	0,8	0,7	1,5	1,7
5	Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	5,2	5,1	5,1	4,8
5.1	<i>asosiy vositalarni sotib olish</i>	3,7	4,0	4,0	3,8
6	Foiz to'lovlari	4,1	8,8	16,4	21,1
7	Subsidiyalar	16,0	29,2	29,8	26,9
8	Grantlar	26,9	30,6	36,7	40,3
9	Ijtimoiy nafaqalar	20,3	21,7	18,6	18,6
10	Boshqa xarajatlar	28,9	33,5	26,7	31,4

12-jadval. Subsidiyalar, trln soʻm

		ijro 2022	ijro 2023	Parametr 2024	Prognoz 2025
1	Jami subsidiyalar	16,0	30,6	29,8	26,9
1	Ijtimoiy ahamiyatga ega subsidiyalar	4,3	5,6	7,4	10,2
	<i>shundan</i>				
	Nodavlat MTTlarga subsidiyalar	2,3	2,7	3,0	3,0
	Aholi tomonidan uy-joylar sotib olish uchun subsidiyalar	1,0	1,1	1,5	2,5
	Jamoat transporti zararlarini qoplash	0,5	0,9	1,8	1,9
2	Tadbirkorlini rivojlantirish va aholini bandligini taʼminlash	2,6	3,2	3,2	2,9
	<i>shundan</i>				
	“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ ning mablagʻlarini shakllantirish	0,9	0,9	0,9	0,8
	Eksport qilishda transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish xarajatlari	0,3	0,4	0,5	0,5
3	Energetika sohasini qoʻllab-quvvatlash	7,6	19,7	16,5	11,1
	<i>shundan</i>				
	Tabiiy gazni sotib olish va sotish narxlaridagi tafovutni qoplash	6,7	18,0	9,5	6,4
	Elektr energiyani sotib olish va sotish narxlaridagi tafovutni qoplash	-	-	2,5	0,3
4	Qishloq va soʻv xoʻjaligi sohasi	0,5	1,1	1,7	1,8
	<i>shundan</i>				
	Qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi orqali moliyalashtiriladigan xarajatlar	0,3	0,8	1,0	1,0
	Paxta xom ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib sugʻorishni joriy etish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun xarajatlar	0,0	0,0	0,1	0,2
	Qishloq xoʻjaligida foydalanilmayotgan sugʻoriladigan maydonlar va choʻl hududlardagi yerlarni qayta foydalanishga kiritish xarajatlari	0,0	0,0	0,1	0,1
5	Geologiya-qidiruv ishlari	1,0	1,0	0,9	1,0

Yoqilgʻi-energetika resurslari narxlarining shakllanishini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga oʻtkazishni davom ettirish orqali ushbu yoʻnalishga ajratiladigan subsidiyalar miqdorini 2027-yilga qadar bosqichma-bosqich kamaytirish maqsad qilingan.

9-rasm. Energetika va issiqlik ta'minoti sohasiga subsidiyalar miqdori, trln so'm



2025-yilda davlat dasturlari va tadbirlarga ajratiladigan mablag'lar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlariga muvofiq qabul qilingan **Davlat dasturlari va tadbirlarni** amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2025-yilda jami **19,5 trln so'm** mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan.


Ushbu mablag'lar iqtisodiyot, ijtimoiy soha, transport-kommunikatsiya, texnik-muhandislik, energetika obyektlarini qamrab olgan infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash imkonini beradi.

2025–2027-yillarda Davlat budjeti xarajatlarning sohalar kesimidagi prognozi.

Ijtimoiy soha.

Davlat budjetidan **ijtimoiy sohaga** 2025-yilda jami **170,3 trln so'm** yoki YAIMning **11 foizi** atrofida hamda 2024-yil uchun kutilayotgan ijroga nisbatan 11 foizga ko'p mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan. 2026–2027-yillarda ijtimoiy soha xarajatlari uchun tegishincha 201,8 trln so'm va 225,0 trln so'm mablag' yo'naltirish mo'ljallangan.

10-rasm. Ijtimoiy xarajatlar tarkibi, trln so'm



Ta'lim sohasi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish hamda ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini yetarlicha mablag‘lar bilan ta’minlash maqsadida Davlat budjetidan 2025-yilda **81,8 trln so‘m** (2024-yilda 70,5 trln so‘m) yoki jami xarajatlarning 23,6 foizi va YAIMga nisbatan 5,3 foiz miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan. 2026–2027-yillarda ta’lim sohasi xarajatlari uchun tegishincha 102,5 trln so‘m va 116,3 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirish mo‘ljallangan. Shundan:

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasi.

2025-yilda maktabgacha va maktab ta’limi sohasini moliyalashtirishga Davlat budjetidan **66,1 trln so‘m** yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 15,3 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Ushbu sohaga 2026-yilda jami 83,1 trln so‘m va 2027-yilda 94,5 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirish prognoz qilingan.

Maktabgacha ta’lim sohasida **oziq-ovqat** xarajatlari uchun 2025-yilda **2,5 trln so‘m** yoki 2024-yildan 15 foiz ko‘p mablag‘ ko‘zda tutilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda sohadagi **5 329 mlrd so‘mlik** davlat **dasturlari va tadbirlari**ni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

13-jadval. Maktabgacha va maktab ta’limi sohasi dastur va tadbirlari, mlrd so‘m

	2025
Jami	5 329
Nodavlat MTTlarga Davlat budjetidan subsidiyalar	3 038
Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash	1 511
Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish va maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armalari	350
1 500 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb qilish	200
Yetim bolalarni uy-joy bilan ta’minlash	161
Birinchi sinf o‘quvchilariga o‘quv qurollari sotib olish	143
Tizim tashkilotlarini sport jihozlari bilan taminlash	62

O‘rta-maxsus va oliy ta’lim sohasi.

2025-yilda kadrlar tayyorlash xarajatlari **15,7 trln so‘mni** yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 19 foizga ko‘p mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Ushbu sohaga 2026-yilda jami 19,4 trln so‘m va 2027-yilda 21,8 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirish prognoz qilingan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda sohadagi **3 795 mlrd so‘mlik** davlat dasturlari va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

14-jadval. O‘rta-maxsus va oliy ta’lim sohasi dasturlari, mlrd so‘m

	2025
Jami	3 795
Shartnoma asosida o‘qiyotgan oilalarga ta’lim krediti uchun davlat budjetidan tijorat banklariga maqsadli resurslar ajratish	3 000
Talabalar turar joyini barpo etish bo‘yicha loyihalar uchun subsidiyalar	250
Magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini budjet hisobidan qoplab berish	200
Talabalarni oylik ijara to‘lovi xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun mablag‘lar	200
Talabalar turar joyini barpo etgan xususiy sheriklarga yashagan har bir talaba uchun kompensatsiya to‘lovlari uchun subsidiya	100
Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta’minlash	45

Sog‘liqni saqlash sohasi

2025-yilda sog‘liqni saqlash sohasi xarajatlari **40,2 trln so‘mni** yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 20 foizga oshgan holda, jami xarajatlarning 11,6 foizi, YAIMning esa, 2,6 foizi miqdorida mablag‘lar rejalashtirilgan.

Sog‘liqni saqlash sohasi uchun 2025-yilda dori vositalari, tibbiyot buyumlari, vaksina va bakpreparatlar uchun joriy va davlat dasturlarida nazarda tutilgan xarajatlar bilan birgalikda **3,8 trln so‘m** mablag‘ ko‘zda tutilgan.

Tibbiyot muassasalariga oziq-ovqat xarajatlari uchun 2025-yilda **900 mlrd so‘m** mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda sohadagi **2 087 mlrd so‘mlik** davlat dasturlari va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

15-jadval. Sogʻliqni saqlash sohasi dasturlari, mlrd soʻm.

	2025
Jami	2 087
Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasi, jumladan:	550
“spinal mushak atrofiyasi” tashxisi qoʻyilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam koʻrsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish	150
iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qoʻllab-quvvatlash hamda ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish	50
davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy taʼminotlarni xarid qilish	50
Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish	300
Onalar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash	134
Bolalarni vaktsinatsiya qilish	242
Nefrologiya va gemodializ yordami koʻrsatish	196
Bolalarni hamda tugʻish yoshidagi, homilador va bola emizuvchi ayollarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul taʼminlash	176
Onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish	166
Boshqa dastur va tadbirlar (21 ta)	623

Fan va ilmiy tadqiqot sohasi.

Fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 2025-yilda **2,3 trln soʻm** yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan **4 foizga** koʻp mablagʻ yoʻnaltirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu sohaga 2026-yilda jami 2,7 trln soʻm va 2027-yilda 3,1 trln soʻm mablagʻ yoʻnaltirish prognoz qilingan.

“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda sohadagi **1 802 mlrd soʻmlik** davlat dasturlari va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablagʻlar koʻzda tutilgan.

16-jadval. Fan va ilmiy tadqiqot sohasi dasturlari, mlrd so‘m.

	2025
Jami	1 802
Doktoranturaga ajratilayotgan kvotalar sonini oshirish	1 002
Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash	800

Madaniyat va sport sohasi

Madaniyat va sport sohasiga **2025-yilda** qariyb **6,1 trln so‘m** mablag‘ ajratilishi prognoz qilinib, bu jami Davlat budjeti xarajatlarining **1,8 foizini** tashkil etadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda sohadagi **1 188 mlrd so‘m** davlat dasturlari va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

17-jadval. Madaniyat va sport sohasidagi dastur va tadbirlar, mlrd so‘m.

	2025
Jami	1 188
“O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan badiiy, qisqa metrajli, hujjatli, multiplikatsion filmlarni ishlab chiqarish, ularni dublyaj qilish, subtitrlash, qayta tiklash (restavratsiya) va reklama ishlarini amalga oshirish	110
Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash	125
Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi	170
Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkil etish	250
Olimpiada sport musobaqalariga tayyorgarlik ko‘rish	150
Yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish	104
Boshqa dastur va tadbirlar (14 ta)	279

Aholini ijtimoiy himoya qilish


Aholini ijtimoiy himoya qilish jami xarajatlari uchun (nafaqalar, moddiy yordam, dafn to‘lovlari, homiladorlik nafaqalari va boshqa kompensatsiya to‘lovlari ko‘rinishida) 2025-yilda jami budjet xarajatlarining 5,4 foizi yo‘naltiriladi.

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali to‘lanadigan nafaqalar bo‘yicha amaldagi mezonlarning takomillashtirilishi va nafaqalarning manzilliligini oshirish orqali ushbu xarajatlarni optimallashtirish va buning natijasida boshqa muhim ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya tadbirlariga yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorini oshirish choralari davom ettiriladi.

JB tomonidan 2024-yil mart oyida global kambag‘allik darajasi bo‘yicha e‘lon qilingan hisobotida³, daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar orasida O‘zbekistonning kambag‘allik darajasi xalqaro standartlar bo‘yicha 2015-yilgi 36 foizdan 2022-yilda 17 foizgacha pasaygani ko‘rsatilgan.

Bunga asosiy omillar sifatida uy xo‘jaliklari daromadlarining oshishi, ish haqi miqdorining muntazam oshirib borilishi hamda Hukumat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash dasturlarining kengaytirilganligi keltirilgan.

11-rasm. Daromadlari o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar uchun kambag‘allikning xalqaro chegarasi asosida kambag‘allik darajasi tendensiyasi, foizda



Izoh: Daromadlari o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar uchun kambag‘allikning xalqaro chegarasi asosida kambag‘allik darajasi tendensiyasi (kishi boshiga kuniga 6,85 AQSh doll.)

Ipoteka bozorini rivojlantirish va aholini uy-joy bilan ta‘minlash.

Ipoteka bozorini rivojlantirish va aholini uy-joy bilan ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish:

Ipotekani qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish;

“Bir fuqaroga – bir ipoteka” tamoyilida ipoteka kreditlarini ajratish;

ajratilgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish;

birlamchi bozordagi uy-joylarga “Ijtimoiy majburiyat” tartibini joriy etish.

2025-yilda daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal va foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan **2,5 trln so‘m** yoki YAIMning 0,2 foizi miqdorida subsidiyalar to‘lab beriladi. 2026–2027-yillarda tegishincha 2,7 trln so‘m va 2,9 trln so‘m mablag‘ yo‘naltirish prognoz qilingan.

³ <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>

Iqtisodiyot xarajatlari

Davlat budjetidan 2025-yilda **iqtisodiyotga** ajratilishi rejalashtirilayotgan xarajatlar **36,4 trln so‘mni**, YAIMga nisbatan 2,4 foizni tashkil etib, jami xarajatlarning 10,5 foizini tashkil etadi.

Iqtisodiyot xarajatlari tarkibida, asosan, quyidagilar uchun mablag‘lar ko‘zda tutilmoqda:

suv xo‘jaligi ekspluatatsiya xarajatlari **9,4 trln so‘m** (*shundan nasos stansiyalari tomonidan iste‘mol qilinadigan elektr energiyasini qoplash uchun 7 trln so‘m*);

geologik qidiruv ishlari **950 mlrd so‘m** yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 5,6 foiz ko‘p;

aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar **4 trln so‘m** yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 10,2 foizga ko‘p.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, 2025-yilda **suv xo‘jaligi** sohasida **864,3 mlrd so‘m** davlat dasturlari va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

18-jadval. Suv xo‘jaligi sohasi dasturlari va tadbirlar, mlrd so‘m

	2025
Jami	864,3
Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yerlarni ixotalash xarajatlari	561,8
Paxta xom ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib sug‘orishni joriy etish xarajatlarining bir qismini qoplash	200
Suv xo‘jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun “Smart Water” tizimini joriy etish	76
Meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o‘tkazish	35,5

qishloq xo‘jaligi sohasida **1 931,7 mlrd so‘m** davlat dasturlari va tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘lar ko‘zda tutilgan.

19-jadval. Qishloq xo‘jaligi sohasi dasturlari va tadbirlar, mlrd so‘m

	2025
Jami	1 931,7
Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi uchun mablag‘lar	976,6
fermer xo‘jaliklari tomonidan iste‘mol qilinadigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun subsidiyalar	200
uy hayvonlarini vaksinatsiya qilish xarajatlari	150
qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan maydonlar va cho‘l hududlaridagi yerlarni qayta foydalanishga kiritish	100
qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish	100
qishloq xo‘jaligi korxonalariga qishloq xo‘jalik texnikasini xarid qilishga ajratilgan lizing yoki kreditlar bo‘yicha foizlarni qoplash	66
qishloq xo‘jaligi texnikalari va lazerli tekislash uskunalari hamda don urug‘ seyaklarini xarid qilishda texnika qiymatini qisman qoplab berish uchun subsidiyalar	44
Boshqa 20 ta dastur va tadbirlar	295,2

Davlat hokimiyati, boshqaruvi, adliya, prokuratura, sud va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash xarajatlari 2025-yilda **20,4 trln so‘m** mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, jami xarajatlarning 5,9 foizini, YAIMga nisbatan 1,3 foizni (2022-yilda 1,5 foiz) tashkil qiladi.

Rivojlantirish dasturlari xarajatlari

1. 2025-yilgi Davlat budjeti loyihasida **Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi** uchun **20,5 trln so‘m**, Davlat budjeti jami xarajatlarining 5,9 foizi yoki YAIMning 1,3 foizi miqdorida mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

2. 2025-yilda Tashabbusli budjetlashtirish xarajatlari uchun **7 trln so‘m** mablag‘ yo‘naltirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu jami xarajatlarning 2 foizini tashkil etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan, hududlarni va tarmoqlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun **3,5 trln so‘m** mablag‘ ko‘zda tutilgan.

20-jadval. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi, mlrd so'm

	Ijro	Parametr	Prognoz
	2023	2024	2025
Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar, jami	17 720	20 425	20 500
<i>YAIMga nisbatan foizda</i>	<i>1,7</i>	<i>1,6</i>	<i>1,3</i>
<i>jumladan:</i>			
1 Ijtimoiy soha, shu jumladan:	6 507	7 939	7 900
Umumta'lim maktablari	2 710	4 100	4 750
MTT	991	1 020	1 150
Tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar	1 376	1 320	1 450
Oliy ta'lim muassasalari	683	474	150
Jismoniy tarbiya va sport	438	460	250
Madaniyat va san'at	138	163	100
Ilm-fan va innovatsiya	41	58	50
2 Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	2 894	1 548	1 500
Suv ta'minoti va kanalizatsiya	2 604	1 260	1 100
Issiqlik ta'minoti	290	288	400
3 Yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar	3 133	2 722	2 400
4 Irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish ta'mirlash ishlari uchun	1 347	1 880	1 900
5 Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini infratuzilma bilan ta'minlash	883	1 495	1 800
6 Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash	69	322	400
7 Boshqa yo'nalishlar	1 454	3 719	4 600

2.3.2.3. 2025-2027-yillarda budjetdan ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari.

Budjet mablag'larining cheklangan miqdorlari:

2025–2027-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning dastlabki prognozi;

2025–2027-yillar uchun Davlat budjeti daromadlari prognozi va shundan kelib chiqqan holda aniqlangan taqchillikning cheklangan miqdori;

bazaviy yildagi (*joriy moliya yili*) xarajatlarga oshiruvchi koeffitsiyent (*inflatsiya darajasiga muvofiq*) qo'llangan holda, birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning davlat dasturlari va tadbirlarga qo'shimcha talab etiladigan mablag'lar;

kapital qo'yilmalar to'g'risidagi dastlabki takliflar;

mahalliy budjetlar va DMJ tomonidan transfertlarning miqdorlari bo'yicha takliflar asosida ishlab chiqildi.

Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlari, shuningdek, obyektlarni loyihalashtirish, qurish (*rekonstruksiya qilish*) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalarning cheklangan miqdorlari ushbu Strategiyaning **1-ilovasiga** muvofiq yetkazib beriladi.

2.3.3 DMJ hamda TTJning 2025-yilgi prognozi va 2026–2027-yillardagi mo‘ljallari.

2025-yilda DMJ hamda TTJning **daromadlari** tushumi (*transfertlarsiz*) prognozlari tegishincha **74,8 trln so‘m** va **16 trln so‘mni**, **xarajatlari** (*transfertlar bilan*) **108,2 trln so‘m** va **22,8 trln so‘mni** tashkil etishi prognoz qilinmoqda.


Shuningdek, DMJning 2026–2027-yillardagi **daromadlari** (*transfertlarsiz*) mo‘ljallari tegishincha **85,8 trln so‘m** va **98,7 trln so‘mni**, **xarajatlari** (*transfertlar bilan*) mo‘ljallari **121,2 trln so‘m** va **137,3 trln so‘mni** tashkil etadi.

TTJning 2026–2027-yillardagi **daromadlari** mo‘ljallari tegishincha **27,6 trln so‘m** va **32,8 trln so‘mni**, **xarajatlari** mo‘ljallari tegishincha **27,6 trln so‘m** va **32,8 trln so‘mni** tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti va DMJ o‘rtasidagi transfertlar miqdorining 2025-yilgi prognozi **35,5 trln so‘mga**, 2026–2027-yillardagi mo‘ljallari **39,8 trln so‘m** va **42,5 trln so‘mni** tashkil etadi.

DMJ daromadlari, xarajatlari va ularga respublika budjetidan beriladigan transfertlar miqdorlarining prognozlari bilan mazkur strategiyaning **2-ilovasida** tanishish mumkin.

12-rasm. DMJ va TTJ budjetlarining 2025-yilgi prognozi, *trln so‘m*



2.3.4 Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlari prognozlari.

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozimligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Mahalliy budjetlar xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar ajratish orqali amalga oshiriladi.

2025–2027-yillar uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetiga va viloyatlarning viloyat budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur strategiyaning **3-ilovasida** keltirilgan.


2.3.5 Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlari tahlili.

Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalariga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti qamrovini oshirish, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining ishlatilishida budget tashkilotlari rahbarlarining hisobdorligini va mas'uliyatini kuchaytirish maqsadida 2022-yildan boshlab barcha budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti bilan qamrab olindi.

2023-yildan boshlab soliqlar, majburiy yig'imlar, bojlar va jarimalar hisobidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralarning budgetdan tashqari jamg'armalariga kelib tushgan mablag'larning hamda mazkur jamg'armalarning bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga joylashtirishdan olingan daromadlarning 40 foizini har oy yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining respublika budgetiga o'tkazish tartibi joriy etildi.

2025-yilda barcha budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlari mos ravishda 32,4 trln so'm miqdorida prognoz qilingan.

13-rasm. Jami budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari, trln so'm




2.4 Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko'rsatkichlari.

2.4.1. Davlat qarzining joriy holati.

Davlat qarzi qoldig'i 2024-yil 1-yanvar holatiga **34,9 mlrd AQSh dollarni** (*shundan, davlat tashqi qarzi – 29,6 mlrd AQSh doll., davlat ichki qarzi – 5,3 mlrd AQSh doll.*) yoki YAIMga nisbatan **38,4** foizni tashkil etdi, davlat tashqi qarzi esa YAIMga nisbatan **32,6** foizni tashkil qildi.

XVJning mamlakatlar iqtisodiyotiga bag'ishlangan hisobotiga⁴ ko'ra, O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi bugungi kunda **“mo'tadil”** darajada hisoblanadi.

14-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi



2023-yilda davlat qarzining o'tgan yilga nisbatan **5,7 mlrd AQSh dollariga** oshgani, asosan, davlat budjeti taqchilligi va investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb qilingan yangi va mavjud qarzlarning o'zlashtirilishi, davlat qarz portfeli tarkibidagi valyuta kurslaridagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Xususan, 2023-yil davomida:

- O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan tashqi qarz qoldig'i **4 086,1 mln AQSh dollariga** oshgan;
- davlat kafolati ostida jalb qilingan tashqi qarz qoldig'i **363,8 mln AQSh dollariga** kamaygan;
- davlat g'aznachilik obligatsiyalari emissiya qilinishi hisobiga yuzaga kelgan majburiyatlar hamda davlat budjetidan qaytariladigan ichki qarz qoldig'i **1 971,1 mln AQSh dollariga** oshgan.

So'ngi yillarda davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar hozirda o'z samarasini bermoqda.

⁴ <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2022/06/22/Republic-of-Uzbekistan-2022-Article-IV-Consultation-Press-Release-Staff-Report-and-519919>

Xususan:

- 2020-yildan boshlab **yangi jalb qilinadigan davlat tashqi qarzi miqdorlarini qonuniy chegaralash amaliyoti yo'lga qo'yildi.**

- 2021-yildan ichki majburiyatlar bo'yicha davlat kafolatlarini berish amaliyoti to'xtatildi hamda davlat korxonalari va banklari o'z loyihalarini moliyalashtirish uchun, transformatsiya jarayonlariga muvofiq, jahon moliya bozorlarida **davlat kafolatisiz** mablag' jalb qilishga o'tkazilmoqda.

Xususan, davlat korxonalari va banklari tomonidan xalqaro me'yorlar va talablar asosida o'z moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta'minlash, "Fitch", "S&P" va "Moody's" xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, xalqaro kredit reytingi olinishi natijasida 2019–2021-yillarda "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "O'zmilliybank" AJ, "Ipoteka-bank" ATIB, "UzAvto Motors" AJ va "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan umumiy hajmi qariyb **2 mlrd** AQSh dollarlik mablag'lar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jahon bozoridan jalb qilindi.

- Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarini pasaytirish maqsadida davlat qarzini xorijiy valyutadagi ulushini bosqichma-bosqich pasaytirish uchun milliy valyutadagi xalqaro obligatsiyalar chiqarish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Xususan, 2020–2023-yillarda milliy valyutada **8,75 trln** so'mlik suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

- Davlat qarzini boshqarish va moliyaviy tahlil tizimida (DMFAS-6 dasturiy majmuasi) davlat qarzi to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuni.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonunda quyidagi asosiy normalar belgilangan:

1. Davlat qarzining eng yuqori miqdori:

davlat qarzi YAIMga nisbatan 60 foizdan oshmasligi lozim;

davlat qarzi YAIMga nisbatan 50 foizga yetganda davlat qarzini pasaytirish choralari ishlab chiqiladi.

2. Davlat boshqaruv organlarining davlat qarzini boshqarishdagi aniq vakolatlari:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

davlat qarzini boshqarish bo'yicha vakolatli organ;

davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqadi.

Oliy Majlis palatalari:

davlat qarzi limitlarini belgilaydi;

Vazirlar Mahkamasi:

davlat qarzini jalb qilish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi;

davlat qarzini boshqarish strategiyasini tasdiqlaydi.

3. Davlat qarzi jalb qilinadigan sohalar:

davlat budjeti taqchilligi;

ijtimoiy va infratuzilma loyihalari hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalar.

4. Axborotlar ochiqligi va shaffofligi:

loyiha tashabbuskorlari o'z loyihalari natijadorligiga javobgar;

natijadorlikka oid ma'lumotlar tashabbuskorlar rasmiy veb-saytlarida e'lon qilib boriladi.

2.4.2. Davlat qarzining prognoz ko'rsatkichlari

2025–2027-yillar uchun prognoz.

Davlat qarziga belgilanadigan yillik limitlar, Davlat budjeti taqchilligi va yirik investitsiya loyihalarini qarz hisobiga moliyalashtirish bo'yicha taxminlarga asoslangan ssenariy prognozlariga muvofiq, dastlabki tahlil amalga oshirildi.

Dastlabki tahlillarga ko'ra, o'rta muddatda makroiqtisodiy hamda fiskal ko'rsatkichlarning barqarorligi ta'minlangan sharoitda, davlat qarzining YAIMga nisbati 2025–2027-yillarda 39,5-40,4 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Shundan, davlat tashqi qarzining YAIMga nisbati o'rtacha 33,3 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Xususan, mazkur prognoz 2025–2027-yillarda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining YAIMga nisbati o'rtacha 3 foiz, davlat tashqi bitimlari hajmi 2025–2027-yillarda 4,5 mlrd AQSh dollari va ichki davlat qimmatli qog'ozlar hajmi jami qarz mablag'lariga bo'lgan talabning yarmi hisobidan qoplanishi bo'yicha qat'iy cheklangan taxminlarga asoslangan.

2.4.3. Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.

a) Davlat qarzini to'lashning o'rtacha muddatini uzaytirish (*masalan, o'rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari chiqarishni ko'paytirish*), shuningdek, davlat qarzini manbalar bo'yicha diversifikatsiya qilish;

b) Davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni keng jalb qilish jarayonini jadallashtirish;

v) Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xatarlarning oldini olish, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish yuzasidan qat'iy choralar ko'rish;

g) Davlat qarziga oid ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash.

III. Fiskal tavakkalchiliklarni baholash.

3.1. Makroiqtisodiy va fiskal tavakkalchiliklar.

Davom etayotgan murakkab tashqi vaziyat va buning O'zbekiston va asosiy savdo hamkor davlatlarimiz iqtisodiyotiga ta'siri mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishishida bir qator makro-fiskal xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Jumladan, global inflatsiya darajasining ko'tarilishi, yuqori foiz stavkalarining saqlanib qolishi, oltin narxining keskin tebranishi, global ta'minot zanjiridagi uzilishlar, valyuta kursidagi tebranishlar kabi xatarlar makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Mazkur bo'limda yuqorida qayd etilgan **xatarlar 3 ta muqobil ssenariy** asosida baholanib, ularning makroiqtisodiy va budget barqarorligiga ta'siri o'rganiladi.

Shu bilan birga, asosiy makro-fiskal ko'rsatkichlarga bir martalik ichki va tashqi shoklarning ta'siri va ularga iqtisodiyotning bardoshlilikini oshirish hamda xatarlar ta'sirini yumshatish choralari ko'rsatib o'tiladi.

1-ssenariy. Geosiyosiy ziddiyatlarning yanada keskinlashuvi natijasida asosiy savdo-hamkor mamlakatlarimizda iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi.

Hisob kitoblarga ko'ra, mazkur ssenariyda yalpi talab omillarining qisqarishi hisobiga iqtisodiy o'sish sur'ati asosiy ssenariyga nisbatan 0,9 f.b.ga qisqarishi mumkin.

Bunda, real yalpi iste'molning 1,6 f.b.ga, eksport hajmining 1,1 f.b.ga hamda pul o'tkazmalarining o'tgan yilga nisbatan 11,5 f.b.ga qisqarishi iqtisodiy o'sish sur'atini 0,9 f.b.ga pasayishining asosiy omillari bo'lishi prognoz qilingan.

1-ssenariy bo'yicha yo'l qo'yilayotgan asosiy taxmin va farazlar:


– tashqi talabning ya'ni asosiy savdo hamkorlarimizning o'rtacha tortilgan iqtisodiy o'sish sur'ati 1 f.b.ga qisqarishi natijasida eksport hajmining asosiy ssenariydagi prognozlarga nisbatan sekinlashishi;

– pul o'tkazmalari hajmining kamayishi hamda buning natijasida iste'mol talabining sustlashishi;

– sanksiyalar qo'llanilishi natijasida asosiy savdo hamkor mamlakatlarimiz valyutalarining qadrsizlanishi;

– iqtisodiy noaniqlik oshishi natijasida oltin narxining ko'tarilishi.

15-rasm. Asosiy savdo hamkor mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayishining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri. ("—" – asosiy ssenariy, "---" – muqobil ssenariy)



2-ssenariy. Global inflatsiyaning oshishi.

So‘nggi vaqtlarda Yaqin Sharqda davom etayotgan ziddiyatlar natijasida savdo logistikasida kuzatilayotgan uzilishlar hamda transport koridorlarining yopilishi savdo xarajatlarining ortishiga shuningdek, energetika, oziq-ovqat, xizmatlar va boshqa turdagi xom-ashyo mahsulotlarining narxi oshishiga ta’sir o‘tkazmoqda.

Bir qator xalqaro tashkilotlar kelgusida mojaroning keskin tus olishi, inflatsiyaning yangi to‘lqini kelib chiqishi borasida xavotirlarini keltirib o‘tgan.

Xususan, energetika, oziq-ovqat, xizmatlar va boshqa turdagi xomashyo mahsulotlarining narxi oshishi borasidagi xatarlar yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

2-ssenariy bo‘yicha yo‘l qo‘yilayotgan asosiy taxmin va farazlar:

– import narxlarining ko‘tarilishi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi orqali inflatsiyaning o‘shishi;

– jahon bozorida asosiy eksport tovarlari narxlarining oshishi natijasida mazkur tovarlar eksporti hajmining ortishi;

– jahonda inflatsiyani jilovlash maqsadida monetar sharoitlarning yanada qat’iylashtirilishi hamda moliya bozorida foiz stavkalarining ko‘tarilishi;


– valyuta kursining nisbatan yuqoriroq qadrsizlanishi;

– inflatsiya oshishi natijasida aholi real daromadlarining qisqarishi hamda iste’mol talabining sekinlashishi.

Yuqori inflatsiya ish haqi, pensiya va nafaqalarning yuqoriroq indeksatsiya bo‘lishi, shuningdek xalqaro foiz stavkalarining ko‘tarilishiga va buning natijasida qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining ortishi budjet xarajatlarini tasdiqlangan parametrlarga nisbatan oshishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu holatda ham valyuta kursining qadrsizlanishi o‘rta muddatda tashqi raqobatbardoshlikni oshirishi, shu bilan birga, eksport tovarlari uchun qulay konyunktura shakllanishi shok ta’sirini qisman yumshatuvchi vazifani bajarishi mumkin.

16-rasm. Global inflatsiya oshishining ta'siri. (“—” – asosiy ssenariy, “- -” – muqobil ssenariy)



3-ssenariy. Oltin narxining pasayishi.

2024-yilning dastlabki oylarida jahon bozorida O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari hisoblangan oltin, mis kabi qimmatbaho metallar narxlari tarixiy rekord darajasigacha ko'tarilishi o'z navbatida eksport tushumlari va budjet daromadlarining oshishiga olib keldi.

Kelgusida, mazkur tovarlarning jahon bozoridagi narxi asosiy ssenariyga nisbatan kutilganidan ko‘ra ko‘proq pasayishi hamda uzoq muddatli trendiga qaytish ehtimollari mavjud.


3-ssenariy bo‘yicha yo‘l qo‘yilayotgan asosiy taxmin va farazlar.

Oltin narxining bazaviy ssenariyga nisbatan 1 unsiya uchun 200 AQSh dollarga arzonlashishi natijasida, soha korxonalari, budjet va eksport tushumlariga ta’siri orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi.

Mazkur ssenariyda oltinning 1 troy unsiyasi narxining asosiy ssenariyga nisbatan 200 dollarga (11 foizga) tushishi borasidagi tashqi shokning yuzaga kelishi YAIM o‘sish sur’atini 0,1 f.b.gacha sekinlashtirsa, budjet daromadlari tushumlarini mos ravishda qisqarishiga va fiskal taqchillikni YAIMga nisbatini 0,2 f.b.gacha oshirishi mumkin.

Qayd etish lozimki, hozirgi kundagi shakllanayotgan oltin narxi konyunkturasi qisqa muddatda oltin narxidagi keskin tushish sodir bo‘lishi ehtimolining pastligini ko‘rsatmoqda.

17-rasm. Oltin narxi pasayishining ta’siri. (“—” – asosiy ssenariy, “- - -” – muqobil ssenariy)



3.1.1. Xatarlar ta'sirini yumshatish choralari

Tashqi shoklar asosidagi muqobil ssenariylarda tegishli choralar ko'rilmagan taqdirda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishning kechikishi kabi oqibatlar xatarlari ortadi.

Iqtisodiyotni turli shoklarga ta'sirchanligini qisqartirish va makro-fiskal barqarorlikni ta'minlash bo'yicha bir qator davlat dasturi va qonun hujjatlarida zarur choralar va tarkibiy islohotlar belgilangan. Xususan, quyidagi yo'nalishlarda kompleks choralar ko'rilmogda:

bozor islohotlarini to'laqonli amalga oshirish orqali budjet taqchilligi, shu jumladan, subsidiyalar va qo'shimcha xarajatlar oshib ketishining oldini olish (tarif islohoti, narxlarni erkinlashtirish, fiskal qoidalar va boshqalar);

budjet intizomini ta'minlash, budjet xarajatlari natijadorligiga erishish, davlat moliyasini boshqarish sohasidagi islohotlarni tizimlashtirish;

budjet jarayonlarining shaffofligini yanada oshirish;

soliq ma'murchiligini yaxshilash, samarasiz soliq imtiyozlaridan voz kechish va bu orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish;

2025-2030-yillar uchun davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish;

davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, shaffoflikni oshirish orqali raqobat muhitini kuchaytirish;

ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish orqali iqtisodiyot potensialini yanada oshirish;

iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va eksport sohalarda samaradorlikni oshirish hamda uning tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish;

iqtisodiy tahlil va prognozlash jarayonlarini xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda yanada takomillashtirish, natijalarning aniqliligi va ular asosida iqtisodiy va siyosiy choralarni ishlab chiqish ko'nikmalarini yanada oshirish kabi masalalar ustuvor hisoblanadi.

3.2. Davlat korxonalarining moliyaviy holati tahlili.

Budjetga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan fiskal xatarlarni pasaytirish va davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilishni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli qarori qabul qilindi.

2022-yil ikkinchi yarim yilligidan boshlab XVJ texnik ko'magida ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq, yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holati baholab borilmoqda.

Moliyaviy holati baholab boriladigan yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning 6 tasi energetika, 6 tasi transport, 4 tasi neft-gaz va kimyo, 5 tasi tog'-kon sanoati, 3 tasi aloqa va kommunikatsiya, 3 tasi boshqa sohadagi korxonalardan iborat.

21-jadval. Korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari

Moliyaviy ko'rsatkich	2022-yil (mlrd so'm)	2023-yil (mlrd so'm)	O'zgarish (foiz)
Jami aktivlar	538 413,5	624 786,2	+16,0
Jami majburiyatlar	286 307,0	336 308,1	+17,5
Sof foyda	23 651,0	32 056,1	+35,5
Jami tashqi qarz qoldig'i (mln. AQSh doll.)	12 975,2	12 670,1	-2,3
shundan:			
Davlat kafolati ostida jalb qilingan qarz qoldig'i (mln. AQSh doll.)	5 453,2	4 770,1	-12,5

2023-yil yakuni bo'yicha 27 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning jami aktivlari 2022-yilning shu davriga nisbatan 16,0 foizga ko'payib, 625,0 trln so'mni tashkil qildi.

Bunda, jami majburiyatlar 17,5 foizga oshib, 2023-yil yakunida 336,3 trln so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida ushbu korxonalarning sof foydasi 35,5 foizga oshgan va 32,0 trln so'mga yetdi. Davlat ishtirokidagi korxonalarning jami tashqi qarzi 2,3 foizga kamayib, 12,7 mlrd AQSh dollarni tashkil etdi.

22-jadval. Korxonalarning likvidlik ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot

Moliyaviy ko'rsatkich	2022-yil	2023-yil	O'rta xatar normasi
Joriy likvidlik darajasi (foiz)	137,3	139,5	125-150
Tez likvidlik darajasi (foiz)	97,3	97,4	80-100
Kunlik debitor qarzlar aylanmasi (kun)	46,5	35,6	40-50

2023-yil yakunlari bo'yicha 27 ta yirik davlat korxonalarining o'rtacha likvidlik ko'rsatkichlari ijobiy o'zgargan. Xususan, kunlik debitor qarzlar aylanmasidagi o'zgarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,9 kunga kamaygan.

23-jadval. Korxonalarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumot

Moliyaviy ko'rsatkich	2022-yil (nisbat)	2023-yil (nisbat)	Past xatar normasi (nisbat)
Majburiyatlarning kapitalga nisbati	1,1	1,2	1,0 dan past
Majburiyatlarning aktivlarga nisbati	0,5	0,5	0,5 dan past
EBITDA ning foizlarga nisbati	15,9	10,0	1,3 dan yuqori
Foiz xarajatlarning qoplanishi nisbati	9,7	6,9	1,5 dan yuqori

To'lov qobiliyati ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, jami majburiyatlarning jami aktivlarga nisbati past xatar darajasida saqlanib qolgan.

Foydaning (EBITDA) foiz xarajatlarga nisbati hamda foiz xarajatlarning qoplanish nisbati (EBIT) hisobot davrida pasaygan bo'lsada, past xatar darajasidadir. 2023-yilda majburiyatlar mablag'larining kapitalga nisbati 1,1 dan 1,2 ga ko'tarilgan.

24-jadval: Korxonalarning daromadlilik ko'rsatkichlari

Moliyaviy ko'rsatkich	2022-yil (foiz)	2023-yil (foiz)	O'rta xatar normasi (foiz)
Sof foyda marjasi	9,2	8,5	4–8
Operatsion foyda marjasi	17,6	16,5	5–10
Aktivlarning rentabelligi	4,4	5,1	0–5
Kapitalning rentabelligi	9,4	11,1	0–8

Tahlillarga ko'ra, 27 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning o'rtacha daromadlilik ko'rsatkichlarida 2022-2023-yillarda past xatar darajasi qayd etildi. O'rtacha sof foyda marjasi 9,2 foizdan 8,5 foizga, o'rtacha operatsion foyda marjasi 17,6 foizdan 16,5 foizga pasaygan bo'lsada, mazkur ko'rsatkichlar xalqaro me'yorlarga ko'ra past xatar darajasida saqlanmoqda.

Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalarning o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan aktivlar va kapitalning rentabellik darajasi 2023-yil davomida oshgan.

2023-yil yakunlari bo'yicha 27 ta yirik davlat korxonalarining tanlanma fiskal xatar ko'rsatkichlari 2022-yilga nisbatan yaxshilangan. Xususan, o'rtacha likvidlik ko'rsatkichlaridan kunlik debitor qarzlar aylanmasi o'rta xatar darajasidan past xatar darajasiga tushgan. Korxonalar kesimda o'rtacha to'lov qobiliyati va daromadlilik ko'rsatkichlari fiskal xatar darajalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan.

25-jadval. Korxonalarning ayrim fiskal xatar ko'rsatkichlari

Moliyaviy ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil
Likvidlik ko'rsatkichlar		
Joriy likvidlik darajasi	O'rta	O'rta
Tez likvidlik darajasi	O'rta	O'rta
Kunlik debitor qarzlar aylanmasi	O'rta	Past
To'lov qobiliyati ko'rsatkichlar		
Qarz (majburiyatlar)ning kapitalga nisbati	O'rta	O'rta
Qarz (majburiyatlar)ning aktivlarga nisbati	O'rta	O'rta
Daromadlilik qobiliyati ko'rsatkichlar		
Sof foyda marjasi	Past	Past
Operatsion foyda marjasi	Past	Past
Aktivlarning rentabelligi	Past	Past
Kapitalning rentabelligi	Past	Past

3.2.1. Davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va transformatsiya jarayonlari

Davlat ishtirokidagi korxonalarning samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida 21 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning o'rta va uzoq muddatli transformatsiya strategiyalari XMI va konsalting kompaniyalari bilan hamkorlikda tayyorlandi.

Xususan, quyidagi choralar davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishga qaratildi:

- Kuzatuv kengashlari tarkibida strategiya va investitsiyalar, audit, tayinlash va mukofotlash, korrupsiyaga qarshi kurash va axloq bo'yicha qo'mitalar tashkil etildi.
- Xalqaro hamkorlar bilan korxonalar kuzatuv kengashlariga xorijiy tajribaga ega mustaqil a'zolar jalb etilmoqda. Jumladan, 2024-yil oxirigacha davlat kompaniyalarida mustaqil a'zolar sonini kamida 5 foizdan 20 foizgacha oshirish rejalashtirilgan.
- Korxonalarning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi va ichki boshqaruv hujjatlari xalqaro andozalar asosida qayta ko'rib chiqilmoqda.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning transformatsiya jarayonlarini sifatli bajarish maqsadida korxonalarda ijroiya organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimi joriy etilib, unga bo'ysunuvchi loyiha byurosi tashkil etildi.

8 ta davlat ishtirokidagi korxonalarda ("*O'zbekneftgaz*" AJ, "*O'ztransgaz*" AJ, "*IES*" AJ, "*O'zavtosanoat*" AJ, "*O'zkimyosanoat*" AJ, "*Uzbekistan Airways*" AJ,

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “NKMK” AJ) xorijiy mutaxassislar rahbar lavozimlariga jalb qilingan.

12 davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holatini mustahkamlash va faoliyat samaradorligini oshirishga 4 ta XMI va 15 ta konsalting kompaniyalari jalb etildi.

Korxonalar faoliyatida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillari, tashkilotning mavjud resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimi, xatarlar tahliliga asoslangan korporativ boshqaruv bilan bir qatorda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari izchillik bilan joriy qilinmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoniga muvofiq, 2023-2026 yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish ishlari olib borilmoqda.

26-jadval. 2024-yildan boshlab xususiylashtiriladigan yirik korxonalar

2021-2023 yillarda xususiylashtirilgan yirik korxonalar	2024-yildan boshlab xususiylashtiriladigan yirik korxonalar
✓ “Birinch rezina texnika zavodi” MChJ ✓ “Coca-Cola Ichimligi O‘zbekiston” MChJ ✓ “UzPaynet” MChJ ✓ “Qo‘qon biokimyo” AJ ✓ “Kvars” AJ ✓ “Angren Pipe Line” AJ va boshqalar.	✓ “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ✓ “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ ✓ “O‘zbekinvest” EISK” AJ ✓ “O‘zagrosug‘urta” AJ ✓ “Samarqand Avtomobili zavodi” MChJ ✓ “Toshkent metallurgiya zavodi” MChJ ✓ “Inter Hotel” MChJ va boshqalar.

Davlat korxonalarini isloh qilishni takomillashtirish maqsadida 2023-yil 9-martda “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ-821-sonli Qonun, 2024-yil 14-fevralda “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-907-sonli Qonun, 2023-yil 18-yanvarda “Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish munosabati bilan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-814-sonli Qonuni qabul qilindi.

Xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida 2024-yil 19-aprelda “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari qabul qilindi.

Yuqoridagi qarorlarga muvofiq, 2025-yil 1-iyulga qadar professional konsultantlarni jalb etgan holda, 7 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning 50 foizdan ortiq ulushini savdoga chiqarish, shuningdek, 2026-yilga qadar 4 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning 5 foiz ulushini savdoga chiqarish belgilandi.

3.2.2. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar

27-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar (2024-yil 1-yanvar holatiga)

O‘zbekiston Respublikasi	“Fitch”	“S&P”	“Moody’s”
	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
Davlat korxonalari			
1. “Olmaliq KMK” AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Barqaror)	-
2. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
3. “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
4. “O‘zbekgidroenergo” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
5. “Uzavtomotors” AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Ijobiy)	-
6. “Uzmetkombinat” AJ	BB- (Barqaror)	-	-
7. “O‘zbekneftgaz” AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Salbiy)	-
8. “O‘zkimyosanoat” AJ	BB- (Barqaror)	-	B1 (Barqaror)

Bugungi kunda 8 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalari xalqaro reyting agentliklarining kredit reytingiga ega. Xususan, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra barcha 8 ta korxonalar kredit reytinglari xalqaro reyting agentliklari tomonidan o‘zgartirilmagan.

3.3. Davlat-xususiylar sheriklik loyihalarining tahlili


2023-yil yakuniga ko‘ra mamlakatimizda jami loyiha qiymati (kapital qo‘yilmalari) 233 trln so‘mga teng jami 978 ta (936 ta davlat-xususiylar sheriklik va 42 ta investitsiya) bitimlari imzolangan.

Shundan:


qiymati 1 mln AQSh dollarigacha bo‘lgan loyihalar – 796 ta;

qiymati 1 mln AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan loyihalar – 182 ta.

19-rasm. Sohalar kesimida amalga oshirilayotgan 978 ta DXSh loyihalari (loyiha qiymati bo‘yicha)



20-rasm. Hududlarda amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari (trln so‘m)



3.3.1. Davlat oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan fiskal majburiyatlar

Davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan loyihalardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 558-sonli qarori qabul qilindi.

Dastlabki bosqichda 2023-yil yakuniga qadar imzolangan har birining qiymati 1 mln AQSh dollaridan ortiq bo'lgan (umumiy qiymati 231,2 trln so'm yoki YAIMga nisbatan 21,7 foiz) bo'lgan 182 ta⁵ loyihalar bo'yicha imzolangan bitimlardan kelib chiqadigan davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlari hisob-kitob qilindi (28-jadval).

28-jadval. 2024-yil uchun 182 ta yirik DXSH loyihalaridagi davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlarning qiymati (trln so'm)

Soha nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati	To'g'ridan to'g'ri majburiyatlar ⁶		
			2024	2025	2026
Energetika*	42	209,3	3,74	8,49	15,98
Kommunal	1	16,9	1,85	1,78	1,1
Ijtimoiy soha obyektlarini isitish	34	0,57	0,29	0,33	0,36
Sog'liqni saqlash	7	0,38	0,11	0,12	0,13
Suv xo'jaligi	5	0,14	0,09	0,09	0,1
Ta'lim	47	1,4	0,04	0,04	0,05
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish	39	1,04	-	-	-
Transport	1	1,01	-	-	-
Soliq	1	0,21	-	-	-
Agrosanoat	2	0,14	-	-	-
Madaniyat	1	0,03	-	-	-
Huquqni muhofaza qilish	1	0,03	-	-	-
Qurilish	1	0,01	-	-	-
Jami	182	231,2	6,1	10,8	17,7

*– Davlat ishtirokidagi korxona (“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ) tomonidan to‘lanadi

⁵ Qiymati 1 mln AQSh dollaridan yuqori bo'lgan loyihalar.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O‘RQ-886-son Qonuni.

Davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyatlari – davlat sherigi tomonidan DXSh bitimida belgilangan hamda miqdorlari, shartlari va muddatlari aniq bo‘lgan, to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlar bo‘lib, ularning tarkibiga bir martalik avans ko‘rinishida, shartnoma muddati amal qilishi davomida to‘lanadigan doimiy to‘lovlar, kelishilgan natijalarga erishilgani uchun to‘lanadigan to‘lovlar, muayyan xizmatdan foydalanish darajasidan kelib chiqib, to‘lanadigan to‘lovlar yoki subsidiyalar kiradi.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi 558-sonli qarori

2024-yil uchun konsolidatsiyalashgan budget prognozi bilan solishtirganda, mazkur bitimlar doirasida yuzaga keladigan davlatning to‘g‘ridan to‘g‘ri majburiyatlarining⁷ budget daromadlariga nisbati 2024-yilda 1,6 foizni tashkil etishi mumkin. Ushbu loyihalardagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyatlar asosan loyihalarni amalga oshirish uchun binoni qurish va saqlash uchun, elektr energiyasini sotib olish xarajatlari uchun ajratiladigan mablag‘lardan iborat.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan fiskal majburiyatlardan yana biri davlatning shartli majburiyatlari hisoblanadi.

Davlatning shartli majburiyatlari – DXSh loyihasini amalga oshirish davrida yuzaga kelishi muddatlari va hajmi noaniq bo‘lgan, shuningdek, davlat tomonidan nazorat qilish imkoni bo‘lmagan kelajakdagi muayyan hodisalar natijasiga ko‘ra Davlat budgetining oldida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy moliyaviy majburiyatlar.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi 558-sonli qarori

DXSh loyihalarida shartli majburiyatlar qarz kafolatlari, sotib olish bilan bog‘liq xatarlar (*davlatga qarashli bo‘lmagan korxonalar bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan moliyaviy majburiyatlar*), talab bilan bog‘liq xatarlar, valyuta risklari (*to‘lovlar erkin valyutaga bog‘langan loyihalardan*) va shartnomalar muddatidan oldin bekor qilingan hollarda yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur xatarlardan birortasi yuzaga kelgan taqdirda, to‘lovlar DXSh bitimi qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda muddatidan oldin shartnomalarni bekor qilish ehtimoli juda past bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2023-yil yakuniga ko‘ra 3,7 foizni tashkil etmoqda. Shu sababli, shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganligi uchun kompensatsiya to‘lovlari amalga oshirilmagan. Xususiy sheriklar tashabbusi bilan 2021-2023-yillarda isitish, hunarmandchilik, ta’lim, suv xo‘jaligi va kommunal sohalarda jami 38 ta loyihalar muddatidan oldin bekor qilingan (*2021-yilda 2 ta, 2022-yilda 8 ta bitim va 2023-yilda 28 ta bitim bekor qilingan, 29-jadval*).

⁷ Hisob-kitoblar loyiha baholash hujjatlari bilan birgalikda taqdim etilgan moliyaviy modellar, davlat sherigi tomonidan qoplanishi lozim bo‘lgan xarajatlar va narxlarning yillik o‘sishi, valyuta kursi o‘zgarishi hamda xizmatlardan to‘liq foydalanish bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan farazlarga asoslanadi.

29-jadval. Muddatidan oldin bekor bo'lgan DXSh loyihalari to'g'risida ma'lumot (01.01.2024-y. holatiga)

Soha nomi	Bekor bo'lgan bitimlar soni	Bekor bo'lgan bitimlar qiymati (mlrd so'm)	Kompensatsiya to'lovi ⁸
Ta'lim	3	47,8	0
Suv xo'jaligi	2	7,4	0
Madaniyat	1	6,0	0
Kommunal	2	14,0	0
Ijtimoiy soha obyektlari isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	22	162,1	0
Hunarmandchilik	8	3,6	0
Jami	38	241,0	0

Ta'kidlash joizki, davlat sherigi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi DXSh loyihalarining sifatli bajarilishini monitoring qiladi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni boshqaradi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi kelgusi yillarda fiskal xatarlarni baholashni kengaytirishni va ta'sir darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni kelgusi hisobotlarda aks ettirishni rejalashtirmoqda.

3.4. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlar

Iqlim o'zgarishi xatarlari keng qamrovli bo'lib, ular iqlim o'zgarishining bevosita ta'siridan (misol uchun qurg'oqchilik, harorat ko'tarilishi, yog'ingarchiliklarning va vegetatsiya davridagi o'zgarishlar), shuningdek, suv toshqinlari, sel va zilzilalar kabi tabiiy ofatlar bilan bog'liq ikkilamchi ta'sirlardan kelib chiqadi.

O'zbekistonda ham, qurg'oqchilik, havo-haroratining keskin ko'tarilishi, chang bo'ronlari kabi holatlarning yuzaga kelayotgani, mazkur yo'nalishlarda iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish, ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini baholash ahamiyatini oshib bormoqda.

3.4.1. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatarlarning umumiy tavsifi.

Jahon amaliyotida iqlim bilan bog'liq xatarlarni baholovchi turli indeks va reyting ko'rsatkichlari hukumatlar tomonidan mazkur xatarlar darajasini aniqlash va zarur choralarni ishlab chiqishda keng qo'llaniladi.

⁸ DXSh bitimiga muvofiq.

Xususan, INFORM iqlim o'zgarishi xavfi indeksi iqlim o'zgarishi xavfining umumiy ko'rsatkichini, shuningdek, zilzilalar, qurg'oqchilik, suv toshqini, epidemiyalar bilan bog'liq xavflarni baholaydi. Ushbu indeks 1 dan 10 gacha bo'lgan shkala doirasida o'lchanadi (1 eng past va 10 eng yuqori xavf).

O'zbekiston INFORM indeksiga ko'ra, iqlim o'zgarishi xavfi past mamlakat deb tavsiflangan hamda 2022-yilda 2,5 ball bilan umumiy iqlim xavfi bo'yicha 191 mamlakat ichida 124-o'rinni egallagan (30-jadval).

Ushbu indeksda O'zbekistonda umumiy xavf darajasi nisbatan past qayd etilgan bo'lsada, qurg'oqchilik, zilzila, suv toshqini xavflari yuqoriligicha baholanmoqda.

Xususan, 2050 va 2080-yillardagi prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekistonda zilzilalar, qurg'oqchilik va suv toshqini ehtimoli yuqori bo'lgani sababli umumiy iqlim xavflarining oshishi yuzaga kelishi mumkin.

30-jadval. O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi xavfi indeksi

	Umumiy iqlim o'zgarishi xavfi	Zilzila ta'siri	Qurg'oqchilik	To'fon, (suv toshqini)	Epidemiyalar
2022	2,5	6,8	6,7	5,3	0,0
2050	2,7	6,9	9,0	5,4	0,7
2080	2,7	6,9	9,3	5,6	1,0
global o'rtacha ko'rsatkich (2022-yil)	3,6	3,6	5,1	4,6	3,7

Manba: INFORM iqlim o'zgarishi, Yevropa Komissiyasi, 2022

Yana bir muqobil kompozit iqlim indeksi ND-GAIN bo'lib, u 183 mamlakatning iqlim o'zgarishi va boshqa global muammolarga nisbatan moyilligi hamda ushbu o'zgarishlarga tayyorligini baholovchi indeks hisoblanadi. Ushbu indeksda O'zbekiston 2021-yilda 52,2 ball bilan 183 davlat orasida 72-o'rinni egallagan.

3.4.2. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq budjet xarajatlari


Mamlakatning iqlim o'zgarishlari ta'sirini yumshatish va unga moslashish bo'yicha tadbirlariga budjet xarajatlari 2020-yildagi 14,9 trln so'mdan (YAIMga nisbatan 2,5 foiz) 2022-yilda 26,3 trln so'mga (YAIMga nisbatan 3 foiz) o'sdi. 2022-yilda umumiy iqlim xarajatlarining 96,6 foizi moslashishga, 2,3 foizi oqibatlarini yumshatishga va 1,1 foizi mos ravishda yumshatish va moslashishga yo'naltirildi.

BMTTD va FTA tomonidan o'tkazilgan Iqlim bo'yicha davlat xarajatlari tahliliga ko'ra, yumshatish va moslashish bo'yicha sa'y-harakatlar, asosan, qishloq xo'jaligi (52 foiz) va transport (13 foiz) sohalariga yo'naltirilgan.


Bunda, qishloq xo‘jaligi sohasida iqlim siyosati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va qayta ishlashda suv va energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan.

Transport sohasida esa, jamoat transportini rivojlantirish, elektr transport vositalari importini va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, yo‘llar va avtomobil yo‘llarini noqulay iqlim ta‘siriga chidamlroq qilishni o‘z ichiga oladi.

21-rasm. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq budget xarajatlari



22-rasm. Tarmoqlar kesimida iqlim xarajatlari



Manba : Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O‘zbekiston, BMTTD, FTA, IMV, 2023

Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta‘siri.

JB iqlim o‘zgarishi oqibatida 2030-yilga kelib mamlakat YAIMning 0,9 foizini tashkil etadigan iqtisodiy yo‘qotishlarni taxmin qilmoqda. Bunda, iqlim o‘zgarishi iqtisodiyotga uchta asosiy kanal orqali ta‘sir qilishi qayd etilgan: atrof-muhit degradatsiyasi, sog‘liqni saqlash xarajatlarning ortishi va tarmoqlar kesimidagi yo‘qotishlar.

Ekstremal ob-havo hodisalari, suv toshqinlari va zilzilalar kabi tabiiy ofatlar, shuningdek, jamoat infratuzilmasiga zarar yetkazishi oqibatida katta fiskal xarajatlarga olib kelishi mumkin (32-jadval).

Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi va chorvachilik tarmoqlariga bevosita ekinlar hosildorligi va mehnat unumdorligining pasayishi, shuningdek, sanoat tarmoqlarida sovutish ehtiyojlari bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlari orqali bilvosita ta‘sir qiladi.

31-jadval. 2030-yilga kelib O‘zbekistondagi iqlim ta’siridan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlar

Risklar	Oqibatlar	Iqtisodiy xarajatlar (2020-y narxlarida mln AQSh doll.)
Atrof-muhit degradatsiyasi	Biologik xilma-xillikning yo‘qolishi	228,4
Salomatlik	Diareya infeksiyalari Haddan tashqari issiqlik Meningit	
Sanoat va iqtisodiyot	Qishloq xo‘jaligi Isitish va sovutish Baliqchilik Gidroenergetika Mehnat unumdorligini yo‘qotish	403,0 -40,3 2,7 -242,0 40,3
Jami		392,1
YAIMga nisbatan		0,9 foiz

Manba: O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sari, JB, 2022-yil

32-jadval. O‘zbekistondagi tabiiy ofatlarning taxminiy iqtisodiy oqibatlari

Muammolar	Iqtisodiy ta’sirning asosiy manbalari	YAIMga nisbatan foizda
Tabiiy ofatlar xavfi	Aktivlar uchun tabiiy ofat xavfi Tabiiy ofatlarning farovonlik uchun xavfi Suv toshqini tufayli iqtisodiyot uchun xavf Zilzila va kapital yo‘qotishdan iqtisodiyot uchun xavf	0,25 0,57 5,00 49,00
Yerning degradatsiyasi	Yer unumdorligi va ekotizim xizmatlarini yo‘qotish	4,00

Manba: O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot sari, JB, 2022-yil

O‘zbekistonda ob-havoning iqtisodiy o‘shish hajmini baholash uchun yalpi hududiy mahsulot 2016-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan choraklik hududiy ma’lumotlardan foydalangan holda, kvadratik spetsifikatsiya orqali harorat va yog‘ingarchilik miqdorining iqtisodiy o‘shishga ta’siri baholandi. Yozda haroratning o‘rtacha havo haroratidan **1°C** ga oshishi Yalpi Hududiy Mahsulot o‘shish ko‘rsatkichini **0,26 foizga** kamaytirsa, tarmoqlar kesimida esa, yozda haroratning **1°C** ga ko‘tarilishi qishloq xo‘jaligi, sanoat va qurilishda qo‘shilgan qiymatning **0,29 foiz**, **0,22 foiz** va **0,48 foizga** kamayishiga olib keladi.

33-jadval. Harorat oshishining YAHM va tarmoqlar kesimidagi qo‘shilgan qiymat o‘shishiga ta’siri

Bog‘liq o‘zgaruvchi	Yalpi hududiy mahsulotning o‘shishi	Qishloq xo‘jaligidagi o‘shish	Sanoatdagi o‘shish	Qurilishdagi o‘shish
Optimal harorat (°C)	15,1	16,8	19,5	16,3
Qishdagi 1°C ↑ ta’sir	0,251***	0,372***	0,446***	0,575***
Bahordagi 1°C ↑ ta’sir	-0,029	0,008	0,082*	-0,007
Yozdagi 1°C ↑ ta’sir	-0,257***	-0,289*	-0,216	-0,483*
Kuzdagi 1°C ↑ ta’sir	0,029	0,083***	0,157***	0,114

Koeffitsiyentlar haroratni 1 darajaga oshirishning marjinal ta’siri

*** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1


3.5. Davlat banklarining moliyaviy holati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq, davlat banklarida xalqaro moliya institutlari va kompaniyalar ko‘magida transformatsiya ishlari davom etmoqda.

Investitsion faoliyatini davom ettirish maqsadida 2021-2023-yillarda davlat banklari kapitallari 13,5 trln so‘mga oshirildi. Davlatning banklarga egalik qilishi fiskal xatarlarni keltirib chiqarib, ushbu xatarlarni oldini olishga qaratilgan bank sektorini xususiylashtirish jarayonlari davom ettirilmoqda. Keyingi moliyaviy hisobotda ushbu xatarlar batafsilroq baholanadi.

Davlat banklari ustav kapitali 2021-yil 1-yanvarda 48,0 trln so‘mni, 2024-yil 1-may holatiga 53,7 trln so‘mni tashkil qildi (23-rasm).


23-rasm. Davlat banklari ustav kapitali, mlrd so‘m



* Ipoteka-bank 2023-yilda xususiylashtirildi

Tijorat banklari moliyaviy ko‘rsatkichlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularni davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi aksiyador bo‘lgan davlat banklaridan tushadigan dividend mablag‘lari tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish maqsadida banklarning kapitaliga yo‘naltirildi. Buning evaziga banklarda kapital monandlilik ko‘rsatkichi (CAR) yuqori darajada saqlanmoqda (24-rasm).

24-rasm. Davlat banklarining kapital monandlilik ko‘rsatkichlari, foiz (min. 13 foiz)



Davlat banklarida Markaziy bank tomonidan likvidlilikni qoplash me‘yori talabi o‘rnatilgan bo‘lib (*min. 100 foiz*), mazkur talab banklar tomonidan bajarilmoqda. Shuningdek, davlat banklarida sof barqaror moliyalashtirish me‘yori ko‘rsatkichlari minimal talabga (*100 foiz*) muvofiq.

Xalqaro reyting agentliklari, moliyaviy va yuridik konsultantlar bilan hamkorlikda olib borilgan ishlar natijasida “Fitch Ratings”, “S&P Global Ratings” va “Moody’s rating” xalqaro reyting agentliklari tomonidan davlat banklari korporativ kredit reytingi darajasi (“BB-” va “B”) berildi (34-jadval).

34-jadval. Davlat banklari korporativ kredit reytingi darajasi

Milliy bank	O‘zSQB	Agrobank	MKB	Xalq banki	BRB	Turon bank	Asaka bank	Aloqa bank
BB-/B (S&P Global Ratings)	BB-, BB- (Fitch Ratings, S&P)	Ba3, BB- (Moody’s Rating, Fitch Ratings)	BB- (Fitch Ratings)	"BB-/B", "B/B" (Fitch Ratings)	B1; BB- (Moody’s Rating, Fitch Ratings)	B/B (S&P)	BB- / Ba3 / BB-	Ba3/NP, B1/NP, (Moody’s Rating)

Yuqorida ko‘rsatilgan Farmon bilan tasdiqlangan strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarni ta‘minlash maqsadida davlat banklari kuzatuv kengashlarida mustaqil a‘zolar kiritildi hamda ularning ulushi 42 foizga yetkazildi.

IV. Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish islohotlari

4.1. 2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar.

2018-yilda amalga oshirilgan PEFA baholashning natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston barqaror va samarali tarzda faoliyat yuritayotgan davlat moliyasini boshqarish tizimiga ega ekanligi ta’kidlandi.

Shunga qaramasdan, baholash natijalariga ko‘ra, davlat moliyasi tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilishi zarurligi aniqlandi.

Mazkur baholash natijalaridan kelib chiqib hamda yuqoridagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlarni tizimlashtirish maqsadida 2020–2024 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi tasdiqlandi.

Mazkur strategiya qabul qilinishi natijasida:

- budjetni shakllantirishning o‘rta muddatli rejalashtirish mexanizmiga (MTBF) o‘tildi;

- 2020-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlari O‘zbekiston Respublikasi Qonuni shaklida tasdiqlash tartibi joriy etildi;

- Konsolidatsiyalashgan budjet qamrovi kengaytirildi;

- Fiskal strategiyani ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi;

- Tashabbusli budjet loyihasi ishga tushirildi;

- dasturiy budjetlashtirish amaliyotini joriy etish ishlari davom etmoqda;

- vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari tashkil etilib, ularning faoliyatini baholash bosqichiga o‘tilmoqda;

- XVJning ma’lumotlarni tarqatishning kengaytirilgan tizimida (r-OSRD) Davlat moliyaviy statistikasi ma’lumotlarini joylashtirib borish;

- fiskal risklarni baholash tartibi joriy etildi;

- O‘zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlar.

2024-yilda JB vakillari va mustaqil ekspertlardan tashkil topgan guruh tomonidan mamlakatimiz moliya tizimini PEFA mezonlari asosida baholash yuzasidan texnik ko‘makni amalga oshirish missiyasi davom etmoqda.

Davlat moliyasini PEFA me'zonlari bo'yicha baholash 7 ta yo'nalishga bo'lingan 31 ta indikator asosida amalga oshiriladi va uning natijalari, shuningdek, ekspertlar tavsiyalari asosida 2025–2030 yillarga mo'ljallangan Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Bunda, yuqoridagi baholash natijalariga ko'ra, aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish bilan bir qatorda, Davlat moliyasini boshqarish strategiyasi quyidagi isloh qilinishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **budjet intizomiga** rioya qilishni kuchaytirish;

- **mahalliy davlat boshqaruv organlarining** qo'shimcha xarajatlar yuzaga kelishining oldini olish, daromadlar bazasini kengaytirish, xarajatlar natijadorligini ta'minlash bo'yicha ma'suliyatini oshirish maqsadida budjet jarayonidagi ularning majburiyatlari va o'z navbatida vakolatlarini kuchaytirish;

- birinchi darajali va hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarning **budjet jarayonidagi ishtirokini** va **mutaxassislarning salohiyatini** oshirish;

- budjet xarajatlarning **samaradorligi** va **natijadorligini** oshirish;

- Davlat xarajatlari to'liq konsolidatsiyalash, ya'ni **kvazifiskal xarajatlar** (*soliq xarajatlari va boshqalar*) hisobini yuritish va ularning samaradorligini o'rganish. Bundan tashqari, Davlat korxonalari va banklarining aktivlari va majburiyatlarini hisobotlarda aks ettirish;

- budjet jarayonida **fiskal nazorat vositalarini** va turlarini qayta ko'rib chiqish. Bunda budjet mablag'laridan **maqsadsiz** foydalanish holatlarini va **noqonuniy** xarajatlarni amalga oshirilgandan keyin emas balki ularning **oldini olish**;

- Davlat moliyasi statistikasini takomillashtirish va XVJning “kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi” ning (K-MTUT) “Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus tizimi” ga (SDDS) o'tish;

- budjet jarayonini **raqamlashtirish** va boshqalar.

4.2 Budget mablagʻlari samaradorligi va natijadorligini oshirish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish” maqsadiga erishishning samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida 2030-yilgacha “Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” (dasturiy budjetlashtirish) amaliyotiga to‘liq o‘tish belgilangan.


Har bir davlatning milliy strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishish uchun budjetdan sarflanadigan mablagʻlarning ushbu maqsadlar bilan uzviy bogʻliqligi **Dasturiy budjetlashtirish tizimi** orqali ta’minlanadi.

Milliy strategiyada belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun har bir vazirlik va idoralarning o‘rta muddatga mo‘ljallangan strategiyalariga to‘liq amal qilinmasligi, ularni nazorat va monitoring qilish tizimi yetarli darajada ishlamasligi natijasida yillik Davlat budjeti xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarining o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Dasturiy budjetlashtirish tizimiga o‘tishning dastlabki bosqichida vazirlik va idoralarning budjet mablagʻlaridan foydalanishi bilan bogʻliq maqsadli indikatorlari tasdiqlanib, ularning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasida muhokama qilinib kelinmoqda.

Dasturiy budjetlashtirish tizimini to‘laqonli joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida joriy yilda O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom qabul qilindi.

25-rasm. Dasturiy budjetlashtirish tizimi



Milliy strategiyada belgilangan maqsadlarga erishish uchun talab etiladigan budget mablag‘laridan samarali foydalanishda vazirlik va idoralarning budget xarajatlari budget dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Budget dasturlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

budget dasturining mundarijasi;

budget dasturining pasporti;

budget dasturining tavsifi;

budget dasturi orqali kutilayotgan natijalar (maqsadli indikatorlar);

resurslarga bo‘lgan talablarning batafsil hisob-kitobi va budget dasturini moliyalashtirish manbalari va hajmlarini ta‘minlash uchun taklif etilayotgan dastur tadbirlarining ro‘yxati va tavsifi.


Har bir budget dasturini shakllanishi va uning ijrosi bo‘yicha mas‘ul shaxs (administrator) belgilanadi.

Mamlakatning turli ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarida belgilangan maqsad va vazifalarga erishilishi bo‘yicha **doimiy monitoring tizimi yaratiladi**.

Ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, davlat moliyasini boshqarishda “Dasturiy budgetlashtirish” tizimini **2023–2028 yillarda** bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, 2025-yil uchun Davlat budgeti loyihasida sinov tariqasida Qishloq xo‘jaligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining budget xarajatlari o‘rta muddatli davr uchun **budget dasturlari** kesimida ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

Qolgan birinchi darajali budget mablag‘lari taqsimlovchilarning 2025-2027 yillar uchun budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq **maqsadli indikatorlarini tasdiqlanadi**.

26-rasm. Respublika budgeti xarajatlarini budget dasturlari bilan qamrab olish darajasi



Shuningdek:

vazirlik va idoralarning mas'ul mutaxassislarini muntazam ravishda budget dasturlarini ishlab chiqish, ijrosini monitoring qilish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish va **institutsional salohiyatni oshirib borish**;

xalqaro konsultantlar bilan birgalikda vazirlik va idoralarning budget dasturlari uchun **Dasturiy tasnifni** joriy etish bo'yicha **takliflar ishlab chiqish**;

vazirlik va idoralarning budget dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni **elektronlashtirish** hamda keng jamoatchilikka ochiqligini ta'minlash tizimini ishga tushirish;

vazirlik va idoralarning budget dasturlarida belgilangan vazifa va maqsadlariga erishganligini baholash bo'yicha reyting tizimini joriy etish;

xorijiy ekspertlar ko'magida vazirlik va idoralarning o'rta muddatga mo'ljallangan **Strategik rejasini (Rivojlantirish dasturi)** tuzish, monitoringini yuritish va ularning ijrosi yuzasidan hisobotlarni taqdim etish tartibini ishlab chiqish;

mahalliy budget tashkilotlariga budget dasturlarini 2 ta tuman misolida sinov tariqasida ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi **Budget kodeksiga** vazirlik va idoralarning **budget dasturi** tushunchalarini aks ettirish yuzasidan o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif tayyorlash bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Ushbu Fiskal strategiyada ilk bor Qishloq xo'jaligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining **2025–2027-yillar** uchun budget dasturlarining dastlabki ro'yxati va ularga talab etiladigan budget va budgetdan tashqari mablag'lar miqdori 35 va 36-jadvallarga muvofiq shakllantirilgan holda taqdim etilmoqda.

35-jadval. Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025–2027-yillarga mo'ljallangan budget dasturlari ro'yxati, mlrd so'm

Budget dasturlar nomi	2025-yil prognoz	Budget mo'ljallari:	
		2026-yil	2027-yil
Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning joriy va boshqa xarajatlari bo'yicha Budget dasturlari:	2 461,5	2 680,5	2 948,5
I. Markaziy apparat jami:	1 428,1	1 543,7	1 698,1
Ma'muriy boshqaruv	74,3	81,7	89,9
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish	115,8	127,4	140,1
Agrar sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	458,8	492,9	542,2
Qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish	717,7	789,5	868,4
Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish	61,6	52,4	57,6
II. Tasarrufdagi tashkilotlarning Budget dasturlari jami:	1 033,4	1 136,7	1 250,4
Respublikada veterinariya va chorvachilik sohasini rivojlantirish, epizootik barqarorlikni ta'minlash va chorva hayvonlarini mahsuldorligini oshirish	526,0	578,6	636,5
Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish	28,3	31,1	34,2
O'simliklar karantini va himoyasi	294,4	323,9	356,3
Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish	150,0	165,0	181,5
"O'zagroinspeksiya"	34,7	38,1	41,9
III. Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0	0	0

36-jadval. Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-2027-yillarga mo'ljallangan budget dasturlari ro'yxati, mlrd so'm

Budget dasturlar nomi	2025-yil uchun prognoz	Budget mo'ljallari:	
		2026-yil	2027-yil
Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning joriy va boshqa xarajatlari bo'yicha Budget dasturlari:	73 845,4	85 126,3	93 638,6
I. Markaziy apparat jami:	469,1	506,1	556,6
Ma'muriy boshqaruv	118,4	127,7	140,5
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	76,3	82,3	90,5
Soliq-budget siyosatini yuritish va Budget barqarorligini ta'minlash	135,4	146,1	160,7
Markazlashgan investitsiyalarni samarali boshqarish va urbanizatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish	55,1	59,5	65,4
Davlat xaridlari va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish	30,8	33,2	36,5
Davlat aktivlarini muvofiqlashtirish va davlat xususiy sheriklik	20,6	22,2	24,4
Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish	32,5	35,1	38,6
II. Tasarrufdagi tashkilotlarning Budget dasturlari jami:	73 376,3	84 620,2	93 082
Ma'muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish, geodeziya va kartografiya ishlari	169,4	180	194
Davlat zaxiralarini boshqarish	159,4	212,6	239,5
Tarmoq bozorlari va ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish	12	13	14,4
Davlat asillik darajasi nazorati	17,7	17,9	19,1
Davlat budjeti g'azna ijrosini ta'minlash	59,9	68,7	75,5
Soliq-budget sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish	18,2	23,9	26,1
O'quv markazida malaka oshirish faoliyatini tashkil etish	14,2	15,2	16,7
Ma'muriy binolardan foydalanish	34,7	36,2	38,7
Pensiya ta'minoti	72 890,8	84 052,7	92 458
III. Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	0	0	0

Sinov natijalaridan kelib chiqib, 2026-yildan boshlab, Davlat budjeti loyihasida barcha vazirlik va idoralarning budget xarajatlari budget dasturlari kesimida ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

Vazirlik va idoralarga dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etish natijasida:

har-bir budget dasturida maqsadli indikatorlar belgilanadi hamda ushbu indikatorlar vazirlikning **strategiya va konsepsiyalariga muvofiq** kelgusi uch yil uchun ishlab chiqiladi;

budget dasturlarini moliyalashtirish manbasi etib **respublika budjeti, budjetdan tashqari jamg'armalar, davlat maqsadli jamg'armalar va grant mablag'lari** belgilanadi;

maqsadli indikatorlarning ijrosi ichki audit xizmatlari tomonidan **baholanadi** hamda vazirlik va idoralar faoliyatidagi **ijobiy va salbiy natijalari aniqlanadi**;

Davlat budjetidan ajratilgan **mablagʻlarning samaradorligi va natijadorligi yuzasidan** vazirlik va idoralarning **Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi oshiriladi;**

budjet loyihasini tuzishda va uni qabul qilishda budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning **moliyaviy mustaqilligi oshiriladi;**

vazirlik va idoralarning budjet xarajatlari toʻliq budjet dasturlari bilan qamrab olinadi.

4.3 Davlat moliyaviy statistikasini yuritishning xalqaro standartlariga o'tish islohotlari

Konsolidatsiyalashgan budget ko'rsatkichlarini XVJning Davlat moliyasi statistikasi (GFS – 2014) qo'llanmasiga muvofiqlashtirishdan maqsad sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisalarning davlat moliyasiga, jumladan, soliq siyosatiga, davlat qarzi siyosatiga hamda investitsiya siyosatiga ta'sirini tahlil qilish va baholash hisoblanadi.

Bundan tashqari, davlat moliyaviy sektorining likvidligi va barqarorligini izchil va tizimli ravishda baholash imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar to'plami davlat xarajatlarining to'liq ko'rinishini, jumladan, xodimlarga to'lanadigan haq, tovarlar va xizmatlardan foydalanish, asosiy kapital iste'moli, to'lanadigan foizlar, subsidiyalar, grantlar, ijtimoiy nafaqalar va boshqa xarajatlarning batafsil tasniflarini o'z ichiga oladi.

37-jadval. Xalqaro standartlarga muvofiq, milliy konsolidatsiyalashgan budget balansidan XVJning Davlat moliyasi statistikasiga o'tish jadvali, 2025-yil prognoz, mlrd so'm

	Daromad	Xarajat	Balans	YAIMga nisbatan
A. Milliy konsolidatsiyalashgan budget balansi	437 771	484 341	-46 570	-3,0
A1 Davlat budjeti	325 055	347 074	-22 018	
A2. DMJ	64 330	62 231	2 098	
A3. TTJ	16 000	22 750	-6 750	
A4. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari	32 386	32 386	0	
A5. Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar		19 900	-19 900	
B. Xalqaro standartlarga muvofiq chegirib tashlangan moliyaviy operatsiyalar, jami	-16 524	-29 435	12 911	0,8
Moliyaviy operatsiyalarni chegirib tashlash (-):	-16 524	-29 435	12 911	0,8
Moliyaviy operatsiyalardan kirim:	-16 524	-160	-16 364	
TTJ	-15 801		-15 801	
DMJ tomonidan ajratiladigan kreditlar	-723	-160	-563	
Moliyaviy operatsiyalardan chiqim:	0	-29 275	29 275	
Tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan kreditlar		-6 633	6 633	
TTJ investitsiya portfeli		-7 229	7 229	
TTJning kredit portfeli		-15 413	15 413	
C. Davlat moliyasi statistikasi (GFS M2014) uslubiyoti asosida daromad, xarajat va sof kreditlash/ qarz olish hajmi (A+B)	421 247	454 906	-33 659	-2,2
D. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibida ajratiladigan kreditlar hajmi (+)	16 524	29 435	-12 911	-0,8
TTJ				
Avval ajratilgan kreditlardan tushum	15 801		15 801	
Kredit portfeli		15 413	-15 413	
Investitsiya portfeli		7 229	-7 229	
Tashqi manbalar hisobidan moliyalashtirilgan kreditlar		6 633	-6 633	
DMJ tomonidan ajratiladigan kreditlar	723	160	563	
D. Umumiy fiskal balans (C+D)	437 771	484 341	-46 570	-3,0

XVJ ekspertlari tomonidan Davlat moliyasi statistikasi va Davlat sektori qarzi statistikasi bo'yicha missiyasi davomida berilgan tavsiyalariga muvofiq, quyidagi vazifalarni amalga oshirish choralari ko'riladi:

- Davlat moliyasi statistikasi hisobotlarini shakllantirishni avtomatlashtirish bo'yicha ishlarni yakunlash;

- Davlat ulushi mavjud korxonalar ro'yxatini shakllantirish va ushbu korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotlarni doimiy ravishda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etib borish tartibini yo'lga qo'yish;

- Davlat moliyasi statistikasini shakllantirish to'g'risidagi milliy yo'riqnomani ishlab chiqish;

- Davlat moliyasi statistikasini takomillashtirish va XVJning "Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi" (K-MTUT)ning "Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus tizimi"ga (SDDS) 2025-yil 1-choragidan o'tish. Ushbu tizimga o'tishda quyidagilar amalga oshiriladi:

 - umumiy Hukumat operatsiyalarini choraklik taqdim etish;

 - markaziy Hukumat operatsiyalarini oylik taqdim etish;

 - markaziy Hukumat qarzi to'g'risidagi ma'lumotlarni choraklik taqdim etish.

4.4 Budjet ochiqligini ta'minlash va budjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish.

Budjet ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan islohotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq, barcha davlat hokimiyati, boshqaruvi organlari va boshqa organlar, shu jumladan, Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari tomonidan Ochiq ma'lumotlarni ommaga chop etish belgilangan.

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Davlat budjetidan sarflanayotgan budjet mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, daromad va xarajatlarning tarkibiy qismlari ochiqlangan holda, vazirlik rasmiy veb-sayti (choraklik va yillik), Ochiq ma'lumotlar portali (opendata.gov.uz), Ochiq budjet portali (openbudget.uz) hamda rasmiy ijtimoiy sahifalarida joylashtirilib kelinmoqda.

Budjet jarayonining ochiqligini yanada oshirish maqsadida kelgusida bir qator maqsadlar rejalashtirilgan:

xalqaro budjet hamkorligi (International budget partnership) tashkilotiga O'zbekiston Respublikasini qo'shish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Iqtisodiyot va moliya vazirining "Budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi (2021-yil 7-mayda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3299) buyrug'ini takomillashtirish.

Fuqarolarni budjet jarayoniga keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijalari.

Budjet mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish, soliq to'lovchilarning budjet savodxonligini yanada oshirish orqali budjet tushumlarini oshirish, budjet ochiqligini ta'minlash orqali xarajatlar samaradorligiga erishish bo'yicha mamlakatimizda ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Jumladan, 2024-yilda tashabbusli budjet jarayonlari yangi bosqichga olib chiqildi, ovoz berish jarayonlari yanada shaffoflashdi, fuqarolar fikri asosida taqsimlanadigan mablag'lar hajmi oshirildi, mavsumlar optimallashtirildi, qonunchilik normalari qayta ko'rib chiqildi.

2024-yilda erishilgan asosiy natijalar:

a) 2024-yildan boshlab tashabbusli budjet jarayonida **“Bir fuqaro – bir ovoz”** tamoyili joriy etildi. Bu ovoz berish jarayonlarini yanada adolatli va shaffof o‘tishiga va o‘z navbatida, fuqarolarning ushbu jarayonlarga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fuqarolarning qamrovini baholash orqali hududlar kesimida aholining budjet jarayonlariga jalb etilishi darajasini tahlil qilish imkonini beradi.

Masalan, 2024-yil 1-mavsum doirasida respublika bo‘ylab aholining 34 foizi ovoz berish jarayonlarida ishtirok etdilar. Bunda eng faol hududlar sifatida Qashqadaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari qayd etildi.

b) Yil davomida fuqarolarning diqqat e‘tiborini ovoz to‘plashga qaratilishini kamaytirish hamda ovoz berish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida **“Mening yo‘lim”** loyihasi Tashabbusli budjetning 1-mavsumi bilan birlashtirgan holda o‘tkazish amaliyoti joriy etildi.

v) Loyihalarni shakllantirish bosqichi to‘liq raqamlashtirildi, **tovar va xizmatlar klassifikatori** joriy etildi. Natijada, g‘olib loyihalarni amalga oshirishda erishiladigan **natija va samaradorlikni** baholash imkoniyati yaratildi.

Jumladan, Tashabbusli budjet jarayonlari doirasida ta‘lim yo‘nalishida nechta maktab, qancha o‘quv partalari bilan ta‘minlanganligi yoki nechta tibbiyot tashkilotiga qancha tibbiyot uskunasi xarid qilinganligi kabi ma‘lumotlar bazasi shakllantirilib boriladi.

Misol uchun, 2024-yil 1-mavsum yakunlariga ko‘ra, umumta‘lim maktablarida 4 646 ta interaktiv doska, 68 mingta o‘quv partasi va 2,7 mingta kompyuter xarid qilinadi. Natijada, 130 ming nafar o‘quvchilar zamonaviy ta‘lim olish imkoniyatlari yaratiladi.

g) tuman va shaharlarning tasdiqlangan budjetlari hisobidan ajratiladigan mablag‘ hajmi jami xarajatlarning **10 foizigacha** (avval 5 foiz edi) oshirildi. Natijada, bir mavsum doirasida har bir tuman va shaharda g‘olib deb topiladigan loyihalar soni avvalgi yillarga nisbatan 7-8 taga oshib, o‘rtacha **15 tani** tashkil etdi. Bu, o‘z navbatida, g‘olib loyihalar uchun to‘plangan ovozlar soni ko‘rsatkichini pasaytirdi.

d) Yosh avlodda budjet jarayoni yuzasidan tushunchalarni dastlabki bosqichlardan shakllantirish hamda ularning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida **sinov tariqasida** 2024–2025-o‘quv yili uchun har bir hududdan **bittadan tuman (shahar)da** “Mening maktabim” jarayoni o‘tkaziladi.

Bunda, 2024-yil uchun **tanlab olingan** tuman (shahar)lardagi mavjud umumta‘lim maktablarining har biriga **bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobaridan (jami 32,3 mlrd so‘m)** mablag‘ ajratish hamda **oktabr oyida** loyihalarni shakllantirish va ovoz berish jarayonlarini o‘tkazish belgilandi.

Ushbu jarayon doirasida loyihalar faqat maktabning **yuqori sinf (5–11-sinflar)** o‘quvchilari tomonidan shakllantirilib, ajratilgan mablag‘lar aynan o‘quvchilar tanlagan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi kutilmoqda.

Maktab o‘quvchilarida mazkur mablag‘ doirasida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida elektron doska, kompyuter to‘plamlari, sport inventarlar, kutubxona uchun kitoblar xarid qilish shuningdek, sog‘lomlashtirish (basketbol, tennis yoki “workout”) maydonchalarini barpo etish imkoniyatlari yaratiladi.

e) 2024-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoniga asosan, **“Yashil makon”** umummilliy loyihasini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag‘larning kamida 50 foizi “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budjet” portali orqali **“Mening bog‘im”** loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi belgilandi.

Bunda aholi tomonidan “yashil bog‘” va “yashil parklari”ni barpo etish bo‘yicha qiymati **250 mln so‘mdan** oshmagan tashabbus bildiriladi. Mazkur loyiha fuqarolarga o‘z hududini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha tashabbus ko‘rsatishga qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

2025-yil uchun istiqboldagi rejalar:

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirgan holda, keng jamoatchilik, xalq vakillari, blogger va jurnalistlar ishtirokida muhokama uchrashuvlarini tashkillashtirgan holda, tizimni doimiy takomillashtirib borish choralari ko‘riladi.

Jumladan, kelgusi yildan boshlab sinov natijalarini inobatga olgan holda, barcha tuman va shaharlarda **“Mening maktabim”** loyihasini joriy etish orqali yosh avlodda budjet savodxonligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, nazorat instrumentlarini kengaytirish, jumladan:

“Ochiq budjet” portalida loyihalarni tashabbuskorlar tomonidan qabul qilib olish mexanizmini to‘liq joriy etish hamda jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish;

loyihalarning amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borish va monitoringini kuchaytirish bo‘yicha hududiy hokimliklar mas’uliyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Majburiy ovoz to‘plashga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish. Xususan, ovoz berish jarayonlarida fuqarolar tomonidan kelib tushgan murojaatlarni tezkorlik bilan o‘rganib chiqish hamda huquqiy baho berish, shu bilan birga, aniqlangan holatlarni kunlik ommaviy axborot vositalarida yoritib borish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish choralari ko‘riladi.

Bunda, majburiy ovoz to‘plangan loyihalarni g‘oliblar ro‘yxatidan chiqarish bo‘yicha vakolatli organni belgilash hamda vakolatli organning huquq va majburiyatlarini qonunchilikda belgilash nazarda tutilmoqda.

Dolzarb masalalardan yana biri bu – mamlakatimizda tashabbusli budjet jarayonida **“aralash moliyalashtirish”** amaliyotini joriy etishdan iborat. Bugungi kunga kelib, ovoz berish bosqichlarida fuqarolar targ‘ibot kampaniyalari uchun turli moddiy rag‘batlantirish tizimlarini taklif etmoqdalar. Bu kabi holatlar turlicha talqin qilinib, jumladan, ayrim mutaxassislar tomonidan demokratik jarayonlarning bir ko‘rinishi deb baholanmoqda.

Bunda mazkur holatni yanada shaffoflashtirish hamda fuqarolarga o‘z mablag‘larini **“legal”** yo‘l orqali o‘z loyihalariga yo‘naltirish imkonini berish maqsadida xalqaro amaliyotda ommalashib borayotgan **“kraudfanding”** tizimini joriy etish imkoniyatlari o‘rganilmoqda.

Birgalikda moliyalashtirish amaliyoti tashabbusli budjet jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Jumladan:

1. Fuqarolarning ishtirokini oshirish: birgalikda moliyalashtirish fuqarolarga budjetlashtirish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Ular muhim deb hisoblagan loyihalarga hissa qo‘shishi va shu orqali budjet mablag‘larini taqsimlashga bevosita ta’sir qilishi mumkin.

2. Mavjud resurslarni kengaytirish: birgalikda moliyalashtirish loyihalari uchun mavjud mablag‘larning umumiy miqdorini oshirishi mumkin. Bu, ayniqsa, turli tashabbuslarni moliyalashtirish zarur bo‘lganda, cheklangan budjet resurslari sharoitida juda muhim hisoblanadi.

3. Shaffoflik va mas’uliyatning oshishi: fuqarolar o‘z mablag‘larini loyihalar uchun sarmoya kiritganda, bu budjet jarayonida shaffoflik va mas’uliyatni oshirishi mumkin. Natijada, loyiha sifatini va erishiladigan natijaga boshqacha ko‘z bilan qaray boshlaydilar. Bu, shuningdek, fuqarolarning budjetlashtirish jarayoniga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

2021–2023-yillar davomida to‘plangan tajriba hamda mazkur yo‘nalishda mavjud xalqaro tajribalar tahlillari asosida bosqichma-bosqich tarzda ushbu amaliyotni mamlakatimizda tatbiq etish choralari ko‘riladi.

4.5 Budget xarajatlarini BRMga uyg'unlashtirish.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) BMTga a'zo barcha mamlakatlar qatori O'zbekiston tomonidan ham ma'qullangan bo'lib, birinchi bosqichda global BRMni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga muvofiq, Milliy BRM hisobga olinishi va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti loyihasini tayyorlash hamda ko'rib chiqishda aks ettirilishini ta'minlash belgilangan.

Qarorda tasdiqlangan 16 ta Milliy maqsad va 127 ta vazifani monitoring qilish uchun 190 ta indikator belgilab olindi. "Fuqarolar uchun budjet" nashrini tayyorlashda Davlat budjetining muayyan BRMni amalga oshirish uchun xarajatlari dastlabki tarzda baholandi. Ushbu baholash Davlat budjeti xarajatlarining qariyb 72 foizi BRMni moliyalashtirish bilan bog'liq ekanini ko'rsatdi.

2021-yilda BMTTD tomonidan tayyorlangan **Taraqqiyotni moliyalashtirishni baholash**⁹ hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) moliyalashtirishdagi farq har yili qariyb 6 mlrd AQSh dollarni tashkil etadi.

O'zbekistonda davlat va xususiy moliyani barqaror rivojlanishga safarbar etish maqsadida kompleks moliyalashtirish tizimini yaratish, shuningdek, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun innovatsion vositalar va moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishni maqsad qilgan **Kompleks milliy moliyalashtirish strategiyasini** ishlab chiqildi.

Kompleks Milliy Moliyalashtirish Mexanizmini (KMMM) ishlab chiqish orqali O'zbekistonda rivojlanishni moliyalashtirishning umumiy mexanizmini mustahkamlashdan iborat. KMMM barqaror rivojlanishni rejalashtirish va moliyalashtirish vositasi bo'lib, mamlakatda mavjud moliyaviy resurslardan foydalanish unumdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarini kengaytirish, hamda moliyaviy va nomoliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarishga yordam beradi.

⁹ Оценка финансирования развития для Республики Узбекистан, аналитический отчёт ПРООН, 2021 г.

4.5.1 “Yashil budjetlashtirish” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish.

FTA hamda BMTTD hamkorligida “Iqlim oʻzgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: Oʻzbekiston” (CPEIR) hisoboti¹⁰ tayyorlandi.

Oʻzbekistonda ilk bor oʻtkazilgan Iqlim oʻzgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahliliy hisobot (tahliliy hisobot) hamda Iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq budjetga integratsiyalashuvi indeksi (CCBII) boʻyicha baholash mamlakatning davlat moliyasini boshqarish tizimiga integratsiyalashuv darajasini baholadi.

Mazkur tahliliy hisobot uchta yoʻnalishdan, yaʼni strategik tahlil, institutsional tahlil va xarajatlarni koʻrib chiqishdan iborat boʻlib, unda quyidagi natijalar keltirilgan:

2020–2022-yillarda iqlim xarajatlari budjet xarajatlariga nisbatan barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻldi va umumiy budjet xarajatlarining 2,5 foizdan (2020-yil) 3 foizga (2022-yil) oshdi. Ushbu tendensiya budjet jarayonida iqlim oʻzgarishini yumshatish va unga moslashishga koʻproq eʼtibor va ustuvorlik berilishini koʻrsatadi;

Davlat budjeti xarajatlarining 10-11 foizi (YAIMning 2-3 foizi atrofida) iqlimga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan xarajatlar qatoriga kiritilgan. Mazkur xarajatlar “iqlim oʻzgarishiga moslashishni” qoʻllab-quvvatlovchi tadbirlarga qaratilgan boʻlib, bu umumiy iqlimga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan xarajatlarning taxminan 95 foizini tashkil qilgan;

iqlimga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi xarajatlar 2020–2022-yillarda Davlat budjeti xarajatlarning 0,9 foizidan 0,4 foizigacha (YAIMga nisbatan 0,2-0,1 foiz) kamaygan (asosan, mineral resurslardan foydalanishni qoʻllab-quvvatlash xarajatlariga taalluqli boʻlgan);

iqlim xarajatlarining tarmoqlar boʻyicha taqsimlanishi notekis: qishloq xoʻjaligi (irrigatsiya) va transport tarmoqlari birgalikda iqlim xarajatlarining 65 foizdan ortigʻini tashkil etdi (2022-yil);

xarajatlar tahlili faqat Davlat budjeti xarajatlarini qamrab oldi. Bunda tashqi manbalar hisobidan jalb qilingan dasturlarni amalga oshirish uchun mablagʻlarning iqlim oʻzgarishini yumshatish va moslashishga qanchalik aloqadorligi aniqlanmagan;

Bundan tashqari, budjet xarajatlarining iqlim oʻzgarishlariga qarshi choralarga yanada samarali yoʻnaltirish boʻyicha takliflar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilgan.

BMTTD hamda FTA koʻmagida amalga oshirilgan yana bir loyiha doirasida “Oʻzbekistonda budjetni “yashil” markirovkalash metodologiyasi va yoʻl xaritasi” ishlab chiqildi.

Budjetni “yashil” markirovkalash modeli uchta alohida ekologik maqsadga, yaʼni iqlim oʻzgarishi taʼsirini yumshatish, iqlim oʻzgarishiga moslashish va boshqa ekologik

¹⁰ https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-01/cpeir_uzbekistan_2023_uzb.pdf

maqsadlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini belgilaydi. Bunda boshqa ekologik maqsadlarga suv va dengiz resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish, resurslar tejamkorligi va yopiq siklli iqtisodiyotga o'tish, ifloslanishning oldini olish va unga qarshi kurashish, ekotizimlarni himoya qilish va tiklash kabilarning yig'indisi kiritiladi.

Davlat moliyasini boshqarish tizimiga bog'liq iqlim o'zgarishi siyosatiga yordam beradigan kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalar rejalashtirilmoqda:

iqlim budjetini markirovkalash modelini to'liq joriy etish;

budjetni "yashil" markirovkalash uslubiyotining yo'l xaritasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

budjetni "yashil" markirovkalash jarayonlarini avtomatlashtirish va dasturiy ta'minotga integratsiyalashtirish;

amalga oshirilayotgan dasturiy budjetlashtirish islohotlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, budjet mablag'larini taqsimlashning asosiy obyektlari sifatida budjet dasturlarini joriy etish;

"yashil" va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq budjet muhokamalari va budjet nazoratiga imkon beruvchi tizimni joriy etish;

dasturiy budjetlashtirish islohotlari doirasida ko'zda tutilgan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq Davlat budjeti ijrosi to'g'risida hisobot berish mexanizmlari va tartiblarini ishlab chiqish va joriy etish;

Davlat tashkilotlari tomonidan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq budjetlashtirish bo'yicha institutsional salohiyatini rivojlantirish;

davlat budjetini shakllantirish jarayonining barqaror rivojlanish maqsadlarini samarali tarzda amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashini ta'minlash.

38-jadval. “Yashil” budjetlashtirish bo‘yicha sohalar kesimida markirovka qilingan mablag‘lar jadvali, 2025-yil uchun prognozi, trln so‘m

	Prognoz	Ijobiy	Salbiy	Ta’sirga ega emas
Xarajatlar, jami	347,1	33,6	1,0	312,5
<i>Jami xarajatlarga nisbatan, foizda</i>	<i>100,0</i>	9,7	0,3	90,0
1 Ijtimoiy xarajatlar	173,9	0,4	-	173,5
2 Iqtisodiyot xarajatlari	36,4	20,1	1,0	15,3
3 Investitsiya xarajatlari	27,6	11,3	-	16,3
4 Davlat boshqaruvi, hokimiyati, adliya, prokuratura, sud va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	20,4	1,7	-	18,7
5 Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari	1,7	-	-	1,7
6 Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha foiz to‘lovlari	21,1	-	-	21,1
7 Boshqa xarajatlar	68,9	0,1	-	65,9

4.5.2 Gender tengligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-sonli qarorida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti loyihasini ishlab chiqish jarayonida gender jihatlarni hisobga olgan holda, ularni gender ekspertizasidan o'tkazish, "Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish"ni rejalashtirish hamda uni budjet jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan.

Yuqoridagilarni amalga oshirish maqsadida Birlashgan millatlar "Ayollar" tashkiloti (UN Women) va OTB ekspertlari bilan hamkorlikda "Gender tenglikni hisobga olgan holda budjetlashtirish" tizimini joriy etish maqsadida qo'yidagi tadbirlar rejalashtirilgan:

- "Davlat budjeti xarajatlarini gender tenglikni hisobga olgan holda budjetlashtirish" uslubiyotini ishlab chiqish;

- Ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjet dasturlarini, normativ hujjatlari va statistik ma'lumotlarini ishlab chiqishda maqsadli gender indikatorlarini inobatga olgan holda tayyorlash;

- ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, Davlat budjeti xarajatlarini Barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga bog'lash;

- budjet jarayoniga to'liq tatbiq etish uchun amaliy tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish;

- Davlat budjetini gender tenglikni hisobga olgan holda budjetlashtirish uslubiyoti asosida budjet xarajatlarini markirovkalash;

- xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda "Davlat budjeti xarajatlarini Gender tenglikni hisobga olgan holda budjetlashtirish" uslubiyoti yuzasidan vazirlik va idoralar uchun amaliy seminarlar o'tkazish ko'zda tutilmoqda.

4.6. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit xizmatini takomillashtirish.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanishda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish yuzasidan ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, davlat sektoriga ichki nazorat va ichki audit tizimini joriy etish orqali davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy auditni kengaytirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Bu borada, vazirlik va idoralarda tashkil etilgan ichki audit xizmatlari faoliyatini uslubiy ta‘minlash hamda ichki audit faoliyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida yo‘lga qo‘yish maqsadida tegishli qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatida budjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar belgilandi.

Bunda asosan, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini rivojlantirish, ularning faoliyatida masofaviy auditni keng ko‘lamda qo‘llash orqali ichki audit tadbirlari samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-sonli qarori bilan vazirlik va idoralarda tashkil etilgan ichki audit xizmatlarining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etishning umumiy qoidalarini belgilovchi Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risida namunaviy nizom tasdiqlandi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Ushbu nizom bilan ichki audit milliy malaka sertifikatini olish uchun talabgorlarga qo‘yiladigan malaka talablari, malaka imtihonini tashkil etish, o‘tkazish hamda malaka sertifikatini berish, muddatini uzaytirish va qayta rasmiylashtirish hamda ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega xodimlarning malaka oshirish kursini tashkil etish va o‘tkazish tartibi belgilandi.

Shu bilan birga, nizomga muvofiq davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlashni tashkil etish va ularning malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qarori bilan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Ushbu nizom bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligini tomonidan vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash va takomillashtirib borish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, JBning "Institutsional salohiyatni oshirish" loyihasi doirasida PriceWaterhouseCoopers(PWC) xalqaro konsalting kompaniyasi xorijiy ekspertlari bilan birgalikda Ichki auditning milliy standartlari (2022-yil 24-oktyabrda 3394-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi) va Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi (2022-yil 27-dekabrda 3406-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi) ishlab chiqildi.

Ichki audit milliy standartlari bilan ichki audit faoliyatining asosiy tamoyillari, ichki audit xizmatining mustaqilligi, ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash va oshirib borish hamda ichki audit tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq talablar belgilandi.

Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi bilan ichki audit tadbirlarining xavf tahlili asosida rejalashtirish, o'tkazish, natijalar yuzasidan hisobot rasmiylashtirish hamda taklif va tavsiyalarning bajarilishini monitoring qilish tartibi belgilandi.

Ichki audit xizmati xodimlarining bilim va malakasini oshirish, ichki audit faoliyatiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotga joriy etish maqsadida milliy va xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda, seminar-treninglar o'tkazildi. Shuningdek, vazirlik huzuridagi O'quv markazida ichki audit xizmati xodimlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Shu bilan birga, davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit tizimini rivojlantirish bo'yicha 2025 – 2027-yillarda quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:

a) Davlat sektorida ichki nazorat tizimini rivojlantirish bo'yicha:

JBning "Institutsional salohiyatni rivojlantirish loyihasi" doirasida Pricewaterhousecoopers (PWC) xalqaro konsalting kompaniyasi bilan birgalikda xalqaro ilg'or amaliyot asosida mamlakatimiz vazirlik va idoralarning ichki nazorat tizimini baholash orqali "O'zbekistonda ichki nazorat va ichki auditni rivojlantirish konsepsiyasi" va uni amalga oshirish "Yo'l xaritasi" hamda vazirlik va idoralarda ichki nazoratni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilovchi "Ichki nazoratni tashkil etish qo'llanmasi" loyihasini ishlab chiqish.

b) Ichki audit xizmatlari faoliyatini rivojlantirish va xodimlar salohiyatini oshirish bo'yicha:

– vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni tashkil etish. Bunda vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni amaliyotga joriy

etish orqali tegishli normativ hujjatlarga amal qilinishini ta'minlash hamda faoliyatni yanada takomillashtirish choralari ko'riladi;

– vazirlik va idoralar ichki audit xizmati xodimlarining ish samaradorligini baholash, reytingini yuritish va rag'batlantirish tartibini ishlab chiqish;

– vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun mohiyatini vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlariga yetkazish maqsadida, xalqaro va milliy darajadagi seminarlar, davra suhbatlari hamda treninglar tashkil etish.

d) Ichki audit faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali faoliyatni avtomatlashtirish bo'yicha “Davlat auditi” dasturiy kompleksida ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid barcha jarayonlarni va hisobotlarni shakllantirish, sertifikatlar reestrini yuritish, ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalarini qamrab olish.

e) Ichki audit xizmatlari faoliyatini institutsional rivojlantirish bo'yicha vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlarini tashkil etish shakllari, minimal normativlari va mezonlarini o'z ichiga oluvchi normativ – huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.

BRM (Barqaror rivojlanish maqsadlari) – Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kambag'allik, tengsizlik, sog'liq va atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish hamda farovonlikni ta'minlashga qaratilgan choralalar.

Budjet xarajatlarining samaradorlik indikatorlari – budjet xarajatlari hisobidan hamda rivojlantirish dasturlarida belgilangan maqsadlarga erishiladigan sifat va miqdor ko'rsatkichlarini baholashda foydalaniladigan ko'rsatkich.

Davlat budjetining birlamchi taqchilligi/profitsiti – muayyan davr uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligi/profitsiti.

Davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyati – davlat sherigi tomonidan DXSh bitimida belgilangan hamda miqdorlari, shartlari va muddatlari aniq bo'lgan, to'lanishi lozim to'lovlar bo'lib, ularning tarkibiga bir martalik avans ko'rinishida, shartnoma muddati amal qilishi davomida to'lanadigan doimiy to'lovlar, kelishilgan natijalarga erishilganligi uchun to'lanadigan to'lovlar, muayyan xizmatdan foydalanish darajasidan kelib chiqib, to'lanadigan to'lovlar yoki subsidiyalar kiradi.

Dasturiy budjetlashtirish – istiqbolli davlat dasturlarini hisobga olgan holda, strategik maqsadlar asosida ishlab chiqiladigan dasturlarni amalga oshirish natijalari bilan davlat xarajatlarini taqsimlash jarayonining bog'liqligini ta'minlovchi budjetni shakllantirish, ijro etish va ijrosini nazorat qilish metodologiyasi.

Fiskal siyosat – davlatning soliq solish va budjet xarajatlari sohasidagi iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida olib boradigan siyosati.

Ichki nazorat – xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini, aktivlarning but saqlanishini ta'minlash, talon-toraj qilish hollari va xatolarning oldini olish hamda aniqlash maqsadida tashkil etilgan chora-tadbirlar tizimi.

Konsolidatsiyalashgan budjet – budjet tizimi budjetlarining barcha tushumlarini hamda xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish maqsadida shakllantiriladigan budjet. Konsolidatsiyalashgan budjet tarkibiga Davlat budjeti, DMJ budjetlari va O'zbekiston Respublikasi TTJ mablag'lari kiradi.

Kraudfanding – insonlar (donorlar)ning jamoa bo'lib birlashuvi bo'lib, ular beg'araz maqsadda o'z mablag'lari va turli resurslarini biror bir loyiha yoki maqsadni amalga oshirmoqchi bo'lgan tashkilot yoxud insonga sarflashlari hisoblanadi.

Natijaga yo'naltirilgan budjet – moliyalashtirish tuzilmasi va hajmlarining budjet mablag'lari oluvchilarning faoliyati natijalari bilan bog'liq bo'lgan budjetni rejalashtirish tizimi.

PIMA (Public investment management assesment) – Davlat investitsiya boshqaruvi samaradorligini baholash tizimi.

Yashil audit – vazirlik va idoralarga budjetdan "yashil maqsadlar" uchun ajratilgan mablag'lardan manzilli foydalanilishini baholash tizimi.

Fiskal qoidalar – davlat moliyasi holatini, ya’ni davlat qarzi, taqchilligi, davlat xarajatlari va daromadlarini tavsiflovchi miqdoriy maqsadli mo’ljallar va fiskal indikatorlar orqali ifodalanadigan soliq-budjet siyosatining uzoq muddatli cheklovlari.

Gender tenglikka yo’naltirilgan budjetlashtirish – fiskal siyosat va davlat moliyaviy boshqaruvi instrumentlaridan foydalangan holda, gender tenglikni ta’minlashga hamda jamiyatda xotin-qizlar manfaatlariga xizmat qiluvchi budjetlashtirish jarayoni.

Ichki audit – vazirlik va idoralarda budjet intizomini mustahkamlash, budjet to’g’risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, budjet tizimi budjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat.

YADMB (“Yashil” davlat moliyaviy boshqaruvi) – davlat moliyasini boshqarish jarayonlari va tizimlarini (ayniqsa, budjet jarayoni) iqlim o’zgarishlariga qarshi kurashish choralari bilan uyg’unlashtiruvchi tizim.

Yashil budjetlashtirish – budjet xarajatlarini iqlim o’zgarishlariga qarshi choralarga yo’naltirishni nazarda tutuvchi budjet jarayoni.

Yashil iqtisodiyot – atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda barqaror rivojlanishni ta’minlovchi iqtisodiyot.

Yashil” markirovkalash – budjet xarajatlarining atrof muhitga ijobiy, salbiy yoki neytral jihatdan ta’sirini tasniflash jarayoni.

